2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 200 (1261), 2024-yil 3-oktabr, payshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Yangi O‘zbekiston — ma’rifiy jamiyat

Maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi, oliy ta’lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo‘lg‘usi Renessansning to‘rt uzviy halqasi, deb bilamiz. Bog‘cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o‘qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg‘onish davrining to‘rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

UCHINCHI RENESSANS KASHFIYOTCHILARI

Mohir pedagog bola qalbidagi olmosni ilg‘aydi

Hayotda aqalli bir kishiga bo‘lsa-da bilim berish, yangilik yaratish, kashf etish, ijod qilishga ruhlantirish, qalbida ezgu fazilatlarni shakllantirish, bir so‘z bilan aytganda, yangi ufqlarni ochish insonga hamisha zavq beradi. O‘qituvchi va murabbiylikni qalb ishiga aylantirganlar esa umri davomida yuzlab, minglab ufqlarni kashf etadi.

Bir inson umrining qanday kechishi qo‘yilgan poydevorga bog‘liq. Farzandiga bir harfni tanitish, raqamni raqamga qo‘shib, yangi raqam hosil qilishni o‘rgatish, tabiatdagi bir hodisaning qanday yuzaga kelishini tushuntirish barchaning ham qo‘lidan kelavermaydi. Buni anglatish uchun bilimning o‘zi kamlik qiladi. Salohiyat, mahorat va tajribadan tashqari katta qalb ham kerak. O‘qituvchi va murabbiylar esa barcha bilimlarni bolalar qalbiga jo aylaydi. Ta’lim-tarbiya beradi.

Mamlakatimizda 1-oktabr sanasining O‘qituvchi va murabbiylar kuni sifatida nishonlanishi zahmatkash kasb egalariga e’tibor namunasidir. So‘nggi yillarda ularning qadri tiklanmoqda, huquq va erkinliklari ta’minlanmoqda.

Davomi 5-betda

MENING TANLOVIM — OBOD VATANIM!

27-OKTABR — OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASI VA MAHALLIY KENGASHLAR DEPUTATLARI SAYLOVI KUNI

SAYLOV 2024 27-OKTABR MENING TANLOVIM — OBOD VATANIM!

Mazkur maqolalar “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi hamda O‘zbekiston Ekologik partiyasiga saylovoldi tashviqoti uchun ajratilgan bepul nashr maydoni doirasida e’lon qilinmoqda.

3-, 4-betlarga qarang.

Buyuk o‘zbek yo‘li

Prezidentimizning yaqinda chop etilgan “Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston” nomli kitobini o‘qir ekanman, avvalo, ushbu fundamental asarning nomlanishi uning mazmuniga to‘liq hamohang ekani e’tiborimni tortdi. Zero, kitobda o‘z xalqi farovonligi yo‘lida olg‘a intilayotgan, xalqaro munosabatlarning bugungi murakkab sharoitiga qaramay, jahonda o‘z o‘rni va mavqei yanada mustahkamlanayotgan, dolzarb xalqaro va mintaqaviy masalalar yechimi yuzasidan tashabbuslarini ilgari surib, ularni hayotga izchillik bilan tatbiq etayotgan mamlakatning ichki va tashqi siyosati chuqur tahlil asosida yoritib berilgan.

NOMI MAZMUNIGA TO‘LIQ HAMOHANG FUNDAMENTAL ASAR

Muallifning ko‘p yillik samarali rahbarlik faoliyati mahsuli bo‘lmish mazkur kitobda yurtimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish yo‘lidagi tub o‘zgarish va islohotlarning mazmun-mohiyati hamda ustuvor yo‘nalishlari, mamlakatimizning zamonaviy qiyofasi qanday yaratilayotgani, davlatimizni yangi rivojlanish bosqichiga ko‘tarish uchun belgilab olingan strategik yo‘l, milliy taraqqiyotimiz istiqbollari haqida atroflicha so‘z yuritilgan.

Davomi 2-betda

Xalqaro anjuman

KREATIV IQTISODIYOT

yaqin yillarda global yalpi ichki mahsulotning 10 foizini tashkil etadi

“Kreativ iqtisodiyot” iborasi keyingi yillarda jahonda ommalashib boryapti. Barcha sohada bo‘lgani kabi iqtisodiyot tarmoqlariga ham yangicha yondashuvlar, innovatsion g‘oyalar, ijodkorlikning o‘ziga xos yo‘nalishlari kirib kelmoqda. Oddiy haykaltaroshdan tortib, dizayner, dasturchi, hunarmand, arxitektor, hatto mediakontent ijodkorlarigacha o‘z ishini tijoriylashtirish orqali faoliyatini kreativ sanoatning bir qismiga aylantirmoqda.

Madaniy va kreativ sanoat esa dunyo bo‘yicha har yili taxminan 2,3 trillion dollar miqdorida daromad keltirib, global yalpi ichki mahsulotning 3,1 foizini tashkil qiladi. 2030-yilga borib bu ko‘rsatkich 10 foiz o‘sishi kutilmoqda. Ijodkorlik ortidan keladigan daromad barqaror iqtisodiyot rivojiga sezilarli hissa qo‘shyapti.

Toshkent shahrida ilk bor o‘tkazilayotgan IV Butunjahon kreativ iqtisodiyot konferensiyasi (WCCE) shu jihati bilan katta ahamiyatga ega. Mazkur anjuman O‘zbekiston Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi (ACDF) tomonidan Indoneziya Respublikasi, BMT Savdo va taraqqiyot konferensiyasi (UNCTAD) va Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO) ko‘magida hamda Britaniya Kengashi, Osiyo taraqqiyot bankining Rivojlanish instituti va Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster universiteti hamkorligida tashkil etildi.

Poytaxtimiz 2-4-oktabr kunlari nufuzli tadbirga mezbonlik qilar ekan, 80 ga yaqin davlatdan kelgan ikki mingdan ziyod ishtirokchi kutib olindi.

Anjumanning tantanali ochilish marosimida O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov, Prezident yordamchisi Saida Mirziyoyeva, Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi raisi Gayane Umerova, UNCTAD bosh kotibi Rebeka Grinspan xonim va boshqalar mazkur nufuzli tadbir iqtisodiyotning kelajagi va eng yangi texnologiyalar, shu jumladan, sun’iy intellektning ushbu jadal rivojlanayotgan sohaga ta’sirini muhokama qilish uchun muhim muloqot maydoni ekanini ta’kidladi.

Ishtirokchilar uch kun davomida kreativ iqtisodiyot, uning mamlakatlar taraqqiyotidagi o‘rni, sohadagi kamchiliklar haqida fikr almashadi. Bu mavzu oddiy odamlar uchun ham qiziq. Boisi, uning ishtirokchisi istalgan ijodkor bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ham kreativ iqtisodiyotga intellektual faoliyat natijasi bo‘lgan mahsulotlarni tijoriylashtirish, degan ta’rif beriladi. Uning shakl va tarmoqlari ko‘p, ayniqsa, bugungi texnologiyalar asrida yanada rivojlanmoqda.

Davomi 2-betda

Davlat dasturi — amalda

QASHQADARYODA O‘QUVCHILAR MAKTABGA AVTOBUSDA QATNAY BOSHLADI

Bu yil 3-sinfga o‘tgan Farida boshqa tengdoshlari qatori o‘qish boshlanishini unchalik intiqlik bilan kutmadi. Yangi o‘quv yiliga oz fursat qolgan bo‘lsa-da, hozirlik ko‘rishga shoshilmasdi. Buning sababini so‘ragan ota-onasiga javob berishni xohlamadi. Kattalar buni shunchaki bolalarcha injiqlikka yo‘yib qo‘ya qoldi. Ammo buning boshqa sabablari bor edi...

O‘tgan yili 2-sinfda o‘qishi davomida qizaloq maktabda eng a’lochilardan biri sifatida barchaga o‘rnak bo‘lgandi. Negadir keyinchalik o‘qishi sustlashib qoldi. Kechasi dars tayyorlab, erta tongdanoq shoshgancha nonushta qilib, maktabga yo‘l olarkan, shuncha harakatiga qaramay, qo‘ng‘iroq chalinar-chalinmas sinfxonaga bir ahvolda yetib kelardi. Gohida chang, ba’zida loy ust-boshini ko‘rgan sinfdoshlari ajablanib qo‘yardi. Boisi, sinfda eng olisdan qatnaydigan o‘quvchilardan biri Farida edi. Axir kamida besh kilometr masofadan yo‘l bosib kelishning o‘zi bo‘lmaydi-da. Buning ustiga hali uyga qaytishi ham bor. Qizni yo‘l azobi ancha charchatib qo‘yayotgandi.

Birgina Faridaning emas, balki mahallasidagi ko‘pgina o‘quvchilarning kuni ertalab maktabga borishdan boshlanib, qaytishi tunga ulanib ketardi. Ba’zan o‘qish deganlari ko‘ziga yomon ko‘rinib ketar, shunday paytlarda otasi imkoni boricha velosipedda olib borib qo‘yishga harakat qilardi. Ammo bunga har kuni ham iloj yo‘q. Ishga borish kerak. Bekorchi bo‘lganida boshqa gap edi.

Davomi 6-betda

Kitobda mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirish yo‘lida hali oldimizda ko‘p vazifalar borligi, mintaqani yanada jipslashtirish masalalari bundan buyon ham asosiy e’tiborimiz markazida bo‘lishi lozimligi ta’kidlanadi.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 3-oktabr, 200-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Buyuk o‘zbek yo‘li

NOMI MAZMUNIGA TO‘LIQ HAMOHANG FUNDAMENTAL ASAR

Qodir JO‘RAYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati,
siyosiy fanlar doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

Mazkur kitobni haqli ravishda keyingi yetti-sakkiz yilda O‘zbekistonda barcha sohadagi jadal o‘zgarishlarning mazmun-mohiyatini o‘zida to‘liq mujassam etgan fundamental asar deyish mumkin. Ko‘p qirrali siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy-ma’rifiy islohotlar, mamlakatimiz va jahon hamjamiyati o‘rtasidagi munosabatlarning biror yo‘nalishi muallif e’tiboridan chetda qolmagan.

Kitobni mutolaa qilar ekanmiz, unda, bir tomondan, mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, yurtimizda tinchlik va barqarorlikni ta’minlash, odamlarni hayotdan rozi qilish, inson qadrini ulug‘lash yo‘lida amalga oshirilgan ezgu ishlar sarhisob qilinganini ko‘ramiz.

Ikkinchi tomondan esa bu borada hali oldimizda qanday yuksak marralar turganini yanada chuqurroq his etamiz. Zotan, kitobda O‘zbekistonni taraqqiy ettirishning joriy holati xolis baholangan holda, milliy taraqqiyotimizning istiqbolli yo‘nalishlari birma-bir ko‘rsatib berilgan.

Kitobning mantiqiy tuzilishi o‘zaro uzviy bog‘langan olti bobdan iborat bo‘lib, ularda muallifning O‘zbekistondagi keng ko‘lamli islohotlar jarayoniga oid teran fikr-mulohazalari bayon etilgan.

Chunonchi, kitobning “Yangi O‘zbekiston — xavfsiz va tinchliksevar davlat” deb nomlangan oltinchi bobida O‘zbekistonning zamonaviy tashqi siyosati va diplomatiyasi, xorijda mehnat qilayotgan migrantlarning huquqlarini himoya qilish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, qurolli kuchlar tizimini rivojlantirish va Afg‘onistonda tinchlik o‘rnatish kabi masalalar yuzasidan muallifning chuqur tahlilga asoslangan fikr-mulohazalari o‘rin olgan.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonning mintaqaviy va xalqaro jarayonlardagi ishtiroki sezilarli darajada faollashdi va uning xalqaro imiji yuqori darajada yuksaldi. Mamlakatimiz ancha faol va pragmatik tashqi siyosat yuritmoqda. Bu siyosat progressiv xarakteri va tinchlikparvarligi bilan xalqaro hamjamiyat e’tirofiga sazovor bo‘lmoqda.

Bugungi kunda yurtimiz dunyoga keng ochilib, jahondagi barcha tinchliksevar davlatlar bilan teng huquqlilik hamda o‘zaro manfaat asosida do‘stlik va hamkorlik aloqalariga ega.

Xususan, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlik har qachongidan ko‘ra ancha kengaygani tahsinga sazovor. O‘zbekistonning Markaziy Osiyoni barqarorlik, xavfsizlik va farovonlik mintaqasiga aylantirishga qaratilgan sa’y-harakatlari tufayli “Markaziy Osiyo ruhi” degan mutlaqo yangi tushuncha paydo bo‘ldi. Mintaqa nafaqat jug‘rofiy, balki investitsiyaviy, savdo-iqtisodiy, siyosiy, transport-kommunikatsiyaviy birlik sifatida ham namoyon bo‘lmoqda.

Shu bilan birga, kitobda mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirish yo‘lida hali oldimizda ko‘p vazifalar borligi, mintaqani yanada jipslashtirish masalalari bundan buyon ham asosiy e’tiborimiz markazida bo‘lishi lozimligi ta’kidlanadi. Ayniqsa, quyidagi uch muhim vazifa alohida tilga olinadi:

— Markaziy Osiyoda xalqaro huquq talablari va barcha davlatlarning milliy manfaatlarini hisobga olgan holda keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini chuqurlashtirish;

— bosqichma-bosqich ravishda mintaqamiz davlatlari hududida fuqarolarning erkin harakatlanishi, shuningdek, tovarlar, xizmatlar va kapitalning sun’iy cheklovlarsiz aylanishiga erishish, shuningdek, umumiy sayyohlik makonini shakllantirishga qaratilgan ishlarni davom ettirish;

— Afg‘oniston bilan ko‘p qirrali va o‘zaro foydali munosabatlarni rivojlantirish, uning iqtisodiy tiklanishiga yaqindan ko‘mak berish, transport-tranzit salohiyatini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish.

Muallif mamlakatimiz tashqi siyosati bilan bog‘liq yana bir muhim vazifa — tinchliksevar tashqi siyosatimizning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish, xususan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda o‘z aksini topgan prinsipial normalarni qonun bilan mustahkamlab qo‘yishni taklif etadi. Xususan, 2012-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasini konstitutsiyaviy tamoyillar asosida takomillashtirish lozimligiga muhim e’tibor qaratadi.

Darhaqiqat, amaldagi O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi muhim hujjat sifatida 2012-2024-yillar mobaynida O‘zbekiston Respublikasi progressiv tashqi siyosatining asosiy maqsad-vazifalari va ustuvor yo‘nalishlarini o‘zida mujassam etdi. Biroq davr bir joyda to‘xtab turmaganidek, mazkur konsepsiyani yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiya, qolaversa, mamlakatimizning hozirgi ochiq, konstruktiv va amaliy tashqi siyosati hamda jahon maydonida tobora yuksalib borayotgan o‘rni va mavqeidan kelib chiqqan holda takomillashtirishga katta ehtiyoj sezilmoqda.

Muxtasar aytganda, kitobning ilmiy va amaliy ahamiyati nihoyatda beqiyos. U, bir tomondan, hozirgi murakkab davrning xarakterli xususiyatlari va yurtimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish yo‘lida amalga oshirilayotgan ortga qaytmas islohotlarning mazmun-mohiyatini to‘liq ifoda etsa, ikkinchi tomondan, barchamizni o‘zgarish va yangilanishlar jarayonidan chetda turmaslikka va aksincha, faol ishtirok etishga undaydi. Shu bilan birga, mazkur fundamental asar ko‘p sonli olim va tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari uchun juda foydali manba va muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi, yangi-yangi ilmiy asarlarning dunyoga kelishiga turtki berishi shubhasiz.

Islohotlar samarasi

QORAQALPOG‘ISTONLIK YOSHLARGA QO‘SHIMCHA 10 MING KVOTA AJRATILDI

Kegeyli tumani “Jiluan jap” mahalla fuqarolar yig‘inida yashovchi To‘maris Tursinbayevaga Qoraqalpoq davlat universitetiga talabalikka qabul qilingani haqida xabar keldi. Ushbu mujdani To‘maris deyarli bir oydan beri orziqib kutayotgan edi. Onasi bu xabarni eshitib, quvonganidan o‘zini qo‘yarga joy topolmay qoldi.

— Qizim o‘qishga hujjat topshirgan, lekin yetarli ball to‘play olmay, uyda xafa bo‘lib o‘tirgan edi. Davlatimiz bergan imtiyoz tufayli u bugun talabalar qatoridan joy oldi. Bundan juda xursandman, — deydi Muhabbat Utepbayeva. — Ota-onaning baxti farzand quvonchida ekan. Ko‘zimdagi yoshlar ham quvonchdan. Xudo xohlasa, qizim kasbining yetuk mutaxassisi bo‘lib, jamiyatga foydasi tegishiga ishonaman.

Oltin davr nasib qilgan yoshlardan yana biri kegeylilik Asiljan Demesinova. U bolaligidan o‘qituvchi bo‘lish orzusida edi. Niyati ushalishi uchun astoydil harakat qildi. Bundan tashqari, berilgan imtiyoz ham unga katta ko‘mak bo‘ldi. Asiljanning maqsadi amalga oshyapti. Kelajakda yosh avlodga sifatli ta’lim-tarbiya berishni maqsad qilgan talaba maktabgacha ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha o‘qiydi.

— Joriy yil qoraqalpog‘istonlik yoshlar uchun 10 ming kvota ajratildi. Hududdagi oliy ta’lim muassasalariga 2 ming kvota berilgan bo‘lsa, shuning 955 tasi Qoraqalpoq davlat universitetiga to‘g‘ri kelmoqda. Oliygohimiz mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha keng qamrovli imkoniyatga ega. Masalan, iqtisodiyot, yurisprudensiya, sanoat, ijtimoiy, servis sohalari bo‘yicha yoshlarni o‘qitamiz, — deydi Qoraqalpoq davlat universiteti qabul komissiyasi a’zosi Jamshid Biyimbetov.

Davlatimiz g‘amxo‘rligi va e’tibori natijasida qoraqalpog‘istonlik yoshlarga qator imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Jumladan, Prezidentimizning 2022 yil 31-avgustdagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasida tadbirkorlik, innovasion texnologiyalar va infratuzilmalarni jadal sur’atlarda rivojlantirish orqali aholi farovonligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bilan hududda doimiy yashovchi hamda umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va professional ta’lim muassasalarini tamomlagan yoshlar uchun 2023/2024-o‘quv yilida davlat granti asosida qo‘shimcha 3000 ta, to‘lov-kontrakt asosida qo‘shimcha 6500 ta kvota ajratilgan edi.

Joriy yilda ham mamlakatimiz shahar va tumanlari uchun zarur mutaxassisliklar soni hamda kadrlar ichki zaruratidan kelib chiqib, 10 ming qo‘shimcha kvota ajratildi. Bunda viloyatlardagi oliy ta’lim muassasalarini tanlagan abituriyentlar uchun qo‘shimcha to‘lov-kontrakt asosida 7 ming kvota berilgan bo‘lsa, Qoraqalpog‘istondagi oliy ta’lim muassasalari uchun 2 mingta, Toshkent shahridagi oliygohlar uchun 1000 ta kvota to‘lov-kontrakt asosida ajratildi.

Nukus tumanida istiqomat qiluvchi Shohrux Bobojonov oilasida katta tantana. Birinchi farzandi Sevinchoy Mahmudova Urganch davlat pedagogika instituti talabasi bo‘ldi. Nukus shahridan Jahongir Sarsenbayev esa Samarqand davlat universitetiga o‘qishga qabul qilindi.

— Bu yil Qoraqalpoq davlat universitetiga imtihon topshirdim, ammo yetarlicha ball to‘play olmaganim tufayli o‘qishga kirolmadim, — deydi Elenora Jiyenbayeva.

— Ba’zida odam harakat qiladi, astoydil o‘qiydi, biroq bu bilim yetarli bo‘lmaydi. Menda ham shunday bo‘ldi, bilimim yetmagani uchun talabalikka qabul qilinmadim. Baribir xafa bo‘ldim. Chunki yana bir yil tayyorgarlik ko‘rishim kerak edi. Bundan tashqari, qiz bola o‘z vaqtida o‘qishga kirgani yaxshi. Yo‘qsa, yaxshi joy chiqsa, kattalar uzatish harakatiga tushib qoladi. Hammasi kutilmaganda o‘zgarib ketdi. Qoraqalpog‘istonlik yoshlarga berilgan imtiyoz tufayli talabalar safiga qo‘shildim. Bu men uchun shunchaki imtiyoz emas, bir qizning o‘z kelajagini qurishi yo‘lida berilgan imkoniyat, hayotini chiroyli boshlashi uchun davlatimizning insonparvar ko‘magi deb bilaman.

— OTMga kirish uchun yetarli ball to‘play olmadim. Prezidentimizning men kabi qoraqalpoq yoshlariga alohida mehri, otalarcha g‘amxo‘rligi tufayli qo‘shimcha kvota bilan talabalikka tavsiya qilindim, — deydi Zulxumar Gulimbetova. — Bizga berilgan imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalanib, davlatimiz ravnaqi, kelajagiga munosib hissa qo‘shadigan yetuk mutaxassis bo‘lishga va’da beraman.

Qo‘shimcha kvotalar ajratilishi hudud uchun bilimli mutaxassislar tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Bu, o‘z navbatida, Prezidentimizning qoraqalpog‘istonlik yoshlarga alohida e’tibori, yaratib bergan imkoniyatlarining yana bir ko‘rinishi bo‘ldi, desak, ayni haqiqat. O‘tgan yili 10 ming qo‘shimcha kvota berilgan bo‘lsa, joriy yilda ham qo‘shimcha 10 ming kvota ajratildi va shuncha yigit-qizning oilasida, qalbida quvonchli kunlar boshlanishiga sabab bo‘ldi.

Minajatdin QUTLIMURATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Xalqaro anjuman



KREATIV IQTISODIYOT

yaqin yillarda global yalpi ichki mahsulotning 10 foizini tashkil etadi

Boshlanishi 1-betda

Faxriy mehmonlardan biri — UNESCO sobiq bosh direktori Irina Bokovaning bu boradagi fikrlari ham juda qiziq.

— Ushbu konferensiyani aynan O‘zbekistonda o‘tkazish tashabbusi to‘g‘ri tanlov bo‘lgan, — deydi Irina Bokova. — U azaldan ijodkor xalqi bilan bugun dunyoga ochilayotgan mamlakat sifatida namoyon bo‘lmoqda. Iqtisodiyotning bilim va innovatsiyalarga asoslangan kreativ modeli esa jahonda barqarorlikning eng muhim omillaridan biriga aylanmoqda. Masalan, G20 davlatlarida 2030-yilgacha ijodiy iqtisodiyot 40 foiz o‘sishi mumkin. BMT hisob-kitoblariga ko‘ra, global kreativ iqtisodiyot tufayli 15 milliondan ortiq ish o‘rni ochsa bo‘ladi. Bularning ko‘pi ayollar va yoshlarni qamrab oladi. Mazkur yo‘nalish O‘zbekiston kabi yoshlari ko‘p davlatlar uchun rivojlanish sari ulkan imkoniyatdir. Buyuk ipak yo‘lidagi joylashuv, UNESCO ro‘yxatiga kirgan shaharlardagi noyob obidalar hamda an’analar kreativ industriyani drayverga aylantirishi mumkin.

Butunjahon kreativ iqtisodiyot konferensiyasi ilk bor 2018-yilda Indoneziyada o‘tkazilgan. O‘shanda uning kreativ iqtisodiyot masalalarini muhokama qilish uchun yetakchi xalqaro platforma sifatidagi ahamiyati namoyon bo‘lgan va bugunga kelib ko‘lami kengayib bormoqda. Konferensiyaning joriy yilgi mavzusi ham dolzarb — “Inklyuziv kreativlik: o‘zgaruvchan reallik”. U texnologiyalar jadal rivojlanishi bilan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy muammolar hamda barqaror kelajakni barpo etishda kreativ sanoatning o‘rnini o‘rganishga bag‘ishlanadi. Asosiy muhokama markazidagi masalalardan biri esa kreativ iqtisodiyot kelajagi, sun’iy intellektning jadal rivojlanayotgan ushbu sohaga ta’siri xususida fikr almashishga qaratilgan.

— Uzoq yillardan buyon Buyuk Britaniya kreativ iqtisodiyot bo‘yicha yetakchi davlatlar qatorida bo‘lib kelmoqda va buning siri ko‘pchilikni qiziqtiradi, — deydi Britaniya kengashi kreativ iqtisodiyot dasturi direktori Rehana Mugal. — Gap shundaki, bizda ijodiy ishlarni tijoriylashtirishga katta e’tibor beriladi. Filmlar, animatsiyalar, ijodiy kasblar muntazam moliyalashtiriladi. Keyingi yillarda sog‘lom turmush tarzi, to‘g‘ri ovqatlanish ham ular qatoriga qo‘shildi. Chunki iqtisodiyotda hamma narsa pulga bog‘liq emas. Ijodkorlik doim zarur. Masalan, hozir sun’iy intellekt ko‘plab ish o‘rinlarini egallamoqda, an’anaviy kasblarning aksariyati yo‘qolib ketyapti. Bunday sharoitda bizga kreativ ijodkorlik asqatadi. Ijodkorligimiz, g‘oyalarimizni ishga solishimiz kerak. Bu dolzarb masalalardan bo‘lib, ushbu yo‘nalishda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash juda muhim.

Xalqaro konferensiya bu boradagi taklif va tashabbuslar, samarali yechimlar uchun noyob platforma bo‘lishi kutilmoqda. Undan yirik uchrashuvlar, ko‘rgazma va vorkshoplar, nufuzli spikerlar, kreativ sanoat liderlaridan mahorat darslari, 10 dan ziyod panel muhokamasi, taqdimotlar, yangi art-rezidensiyalar ochilishi o‘rin olgan. Ishtirokchilar nafaqat yangi bilimlarga ega bo‘lishi, balki madaniy dasturlardan bahra olishi mumkin.

— Butunjahon kreativ iqtisodiyot konferensiyasida qatnashish men uchun katta imkoniyat. Dunyo miqyosidagi kreatorlar bilan ko‘rishib, tajriba almashish uchun o‘ziga xos platforma yaratilgan, — deydi hunarmand-tadbirkor Madina Qosimboyeva. — Xalqaro tajriba biz uchun katta maydon. Ishtirokchilar bizdan o‘rganishi mumkin bo‘lgan jihatlar ham bor. Umuman, bu forumda madaniyatlar uchrashib, iqtisodiyotning yangi yo‘nalishlarida namoyon bo‘lmoqda. Hozirgi davr ijodkorlik borasidagi qarashlarni tubdan yangilab yubordi. Masalan, hunarmandlik yo‘nalishlari ham zamonaviy kasblarga aylanib boryapti. Ulardan biri — so‘zana san’ati. Men shu ish bilan shug‘ullanaman va hayotim mazmuniga aylangan.

Bundan 15-20 yil oldin hunarmandlikning bu turiga qiziqish past edi. Odamlar bu bilan dastlab tirikchilik uchun shug‘ullangan bo‘lsa, hozir san’at darajasiga ko‘tarildi. Undan yaxshigina daromad topish mumkin. Men ham o‘zimni hunarmand, kashtachi sanardim, qachonlardir tadbirkor ayol bo‘laman deb o‘ylamagandim. Hozir juda ko‘p shogirdim bor, qizlarga hunar o‘rgatib, ish bilan ta’minlaymiz. Mahsulotlarimizni tikib yetkaza olmaymiz, talab ko‘p. So‘zana kashtachiligi shu qadar keng tarqaldiki, hozir nafaqat liboslar, balki mebel, uylarning interyer dizaynini yaratishda ulardan foydalanilyapti.

Ijodkorlar birlashgan joyda san’at asarlari yaratilishi shubhasiz. Toshkent shahrida jam bo‘lgan kreativ iqtisodiyot vakillari ana shunday g‘oyalar, loyihalar kelishuviga erishishi, tadbir xalqaro aloqalarni mustahkamlash va innovatsion rivojlanishni rag‘batlantirish uchun yangi imkoniyatlar ochishi kutilmoqda.

Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

MILLIY IQTISODIYOT VA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH — IQTISODIY TARAQQIYOT KAFOLATI

“MILLIY TIKLANISH” DEMOKRATIK PARTIYASI

O‘zbekistonning iqtisodiy qudratini yanada yuksaltirish yo‘lidagi asosiy maqsadlardan biri milliy iqtisodiyotning barqaror va uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlashdir. Barqaror iqtisodiyot esa inflyatsiya va ishsizlikni kamaytirib, aholi daromadlari va turmush darajasi oshishiga xizmat qiladi. Shundan kelib chiqib, “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi o‘z dasturida milliy iqtisodiyot va turizmni rivojlantirish masalasini ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilab, bu borada muhim taklif va tashabbuslarni ilgari surmoqda.

MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI

O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi o‘z g‘oya va maqsadlaridan kelib chiqqan holda milliy qadriyat va an’analar, madaniy merosni asrash, til, ta’lim va tarbiya masalalarini qanchalik muhim deb hisoblasa, **milliy iqtisodiyotni rivojlantirish** masalalariga ham eng muhim maqsadlardan biri sifatida qaraydi. Zero, iqtisodiyotning samarali va jadal rivojlanishi mamlakat YIM ortishiga, pirovardida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlar hajmi ko‘payishiga olib keladi.

Bu borada partiya quyidagi tashabbuslarni ilgari suradi:

— bozorlarda eng muhim iste’mol mahsulotlari narxlari barqarorligini ta’minlash maqsadida fermerlar, jumladan, mahalliy oziq-ovqat ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash dasturlarini joriy qilish;

— mahalliy ishlab chiqaruvchilarga mahsulotlarini tashqi bozorga tez, o‘z vaqtida va arzon narxlarda olib chiqishi uchun bojxona tartib-taomillarida qulayliklar yaratish;

— masofaviy (onlayn) bojxona xizmatlari turlarini ko‘paytirish.

Albatta, mazkur tashabbuslarni ro‘yobga chiqarish qator tashkiliy chora-tadbirlarni ham talab etib, bunda mahalliy ishlab chiqaruvchilarga eksportni rag‘batlantirish bo‘yicha turli imtiyoz va preferensiyalar berish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va kengaytirish uchun subsidiyalar ajratish, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va “yagona darcha” tizimini joriy qilish, shuningdek, milliy brendlarni rivojlantirish va ularning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishni taqozo etadi.

Bu borada alohida qayd etish kerakki, iqtisodiy raqobat kuchayib borayotgan bir sharoitda milliy ishbilarmonlar va tuzilmalar manfaatini oqilona himoya qilish mezonlari asosida fuqarolarni rag‘batlantirish va jamiyatni qadriyatlar atrofida birlashtirish partiya uchun ustuvor vazifa hisoblanadi.

Shu bois, yuqorida qayd etilgan tashabbuslar partiya g‘oya va maqsadlariga mos bo‘lib, milliy ishlab chiqaruvchi va milliy brendlarning rivojlanishiga imkon beradi. Shu yo‘l bilan ichki bozorni sifatli va arzon narxdagi mahalliy mahsulotlar bilan to‘ldirish, narx-navo barqarorligini ta’minlash mumkin.

Mazkur taklif va tashabbuslarning amalga oshirilishi esa milliy iqtisodiyot rivojiga salmoqli hissa qo‘shadi. Jumladan, har yili meva va poliz mahsulotlari, oziq-ovqat tovarlari narxlari o‘zgarib ketishining oldi olinib, dehqonlarimiz va iste’molchilarimiz uchun oldindan prognoz qilish mumkin bo‘lgan **barqaror bozor narxlari** shakllanadi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarga o‘z mahsulotlarini xorijiy bozorlarga erkin olib chiqish uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi.

Xususiy mulkka oid huquqlarni amalga oshirish kafolatlarini kuchaytirish, erkin bozor va halol raqobat munosabatlari partiya diqqat markazida bo‘ladi!

Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlashda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Tadbirkorlik faoliyatining rivoji esa xususiy mulk daxlsizligini ta’minlash bilan bevosita bog‘liq. Shu jihatdan “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi o‘z dasturida mazkur masalaga ham alohida e’tibor qaratgan holda bozor iqtisodiyotini qadriyatlarga asoslangan tarzda rivojlantirish, xususiy mulk daxlsizligi, erkin va halol raqobat munosabatlarini so‘zsiz ta’minlashga doir tashabbuslarini ilgari surmoqda.

Lekin ayrim partiyalarning Saylovoldi dasturida biz uchun muhim qadriyat bo‘lgan xususiy mulk huquqi daxlsizligini buzishga sabab bo‘luvchi takliflar bildirilganini qabul qilib bo‘lmaydi. Masalan, Xalq demokratik partiyasi o‘z Saylovoldi dasturida ilgari surgan shaxsiy transport vositalari davlat raqami toq va juft sonlarini hafta kunlari o‘rtasida taqsimlagan holda harakatlanishini cheklash taklifi fikrimizga misol bo‘ladi. Bu, avvalo, fuqarolarning shaxsiy transport vositalaridan erkin foydalanish bilan bog‘liq mulk huquqlariga daxl qiladi.

Shu sababli “Milliy tiklanish” demokratik partiyasining **shaxslar va tadbirkorlarning xususiy mulkka oid huquqlarini amalga oshirish kafolatlarini kuchaytirish** bilan bog‘liq taklifi boshqa ayrim partiya Saylovoldi dasturlaridan farqli ravishda tizimli yondashuvi bilan ajralib turadi hamda davlat iqtisodiy siyosatida doimiy ravishda ustuvorlik kasb etishi lozimligini anglatadi.

Albatta, mamlakatimizdagi har bir shaxsning iqtisodiy ehtiyojlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan xususiy mulk daxlsizligi, erkin va halol raqobat munosabatlarini so‘zsiz ta’minlash maqsadida samarali iqtisodiy-huquqiy mexanizmlar yaratilishi mulkdor bo‘lish imkoniyatini, mulk daxlsizligini oshiradi, sog‘lom raqobat asosida tadbirkorlik faoliyatini yuritib, iste’molchilarga arzon va sifatli tovar hamda xizmatlarni taklif qilish imkoniyatini beradi.

ISHLAB CHIQARISHGA YO‘NALTIRILMAGAN XARAJATLAR VA ISTE’MOL MAHSULOTLARI NARXLARI ASOSSIZ O‘SISHINING OLDINI OLISH, MILLIY VALYUTANING QADRINI OSHIRISH USTUVOR VAZIFALARDAN BIRI BO‘LADI!

Albatta, partiya uchun ishlab chiqaruvchilarning bunday turdagi xarajatlarni minimallashtirish, aholi iste’mol mahsulotlari narxlari nazorati har doim kun tartibidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki aholining kundalik turmush darajasi, avvalo, iste’mol mahsulotlari narxlari maqbulligi, xarajat va daromadlar mutanosibligi, shuningdek, pul-kredit siyosatining samaradorligiga bevosita bog‘liqdir.

Bu hayotiy ehtiyoj va haqiqatni to‘g‘ri anglagan holda partiya o‘z strategik hujjatida quyidagi tashabbuslarni ilgari surmoqda:

— ishlab chiqarishga yo‘naltirilmagan xarajatlar asossiz o‘sishining oldini olish;

— iste’mol mahsulotlari narxlari nazoratini kuchaytirish va asossiz oshirilishini cheklash;

— milliy valyutaning qadrini oshirish.

Ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmagan xarajatlarning ortiqcha o‘sishi mablag‘larning maqsadsiz sarflanishiga, korxonalarning moliyaviy ahvoli yomonlashuviga olib keladi. Bu esa, o‘z navbatida, ishlab chiqarish hajmi qisqarishi, mahsulot tannarxi va narxi oshishiga sabab bo‘ladi. Shu sababli ishlab chiqarishga yo‘naltirilmagan xarajatlar ustidan qat’iy nazorat o‘rnatish, ularni maqbullashtirish mexanizmlarini joriy qilish muhim ahamiyatga ega.

Ichki bozorni sifatli va arzon narxdagi mahsulotlar bilan to‘ldirish orqali aholi uchun eng zarur iste’mol tovarlari narxlari barqarorligini ta’minlash ularning ijtimoiy hayoti va turmush farovonligini oshirishga imkon beradi. Milliy valyuta qadrini oshirish borasida esa Markaziy bank tomonidan oqilona pul-kredit va valyuta siyosatini yuritish, valyuta bozorini yanada erkinlashtirish, unda bozor mexanizmlari va raqobat muhitini rivojlantirish chora-tadbirlarini izchil davom ettirish lozim.

PARTIYA SOLIQQA TORTISH TIZIMINI SODDALASHTIRISHGA DOLZARB VAZIFA SIFATIDA QARAYDI!

Partiya mamlakatimizda **tadbirkorlik va biznes muhitini** yanada yaxshilashga doir islohotlarni qo‘llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga, mazkur islohotlarni yangi g‘oya va tashabbuslar bilan boyitish maqsadida taklif etilayotgan ustuvor vazifalar yurtimiz iqtisodiyotini rivojlantirish orqali xalqimizning farovon turmushini ta’minlashga xizmat qiladi.

Bu borada, ayniqsa, partiyaning **soliqqa tortish tizimini soddalashtirish** kabi tashabbusi iqtisodiy barqarorlik va biznes muhitini yanada rivojlantirishga imkon beradi. Soliq yukini kamaytirish kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi, sog‘lom raqobat muhitini shakllantiradi. Bu esa iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, aholi bandligi va daromadlarini ko‘paytirishning muhim omilidir.

Lekin aynan soliq masalalari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan O‘zbekiston Ekologik partiyasining tamaki mahsulotlariga qo‘shimcha ekologik soliq, xavfli faoliyat turlari bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlarga ekologiya solig‘i, uglerod solig‘i, tabiatga yetkazilayotgan zarar miqdoridan kelib chiqib tabaqalashtirilgan soliqlar joriy etish, shuningdek, ekologiyaga ko‘p zarar yetkazuvchi tashkilotlarning **soliqlarini oshirish kabi tashabbuslarini hayotiy deb bo‘lmaydi.**

Soliqlar ko‘payishi korxonalar yuklamasining oshishi va investitsiya muhitiga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Boshqacha aytganda, korxonalarning iqtisodiy barqarorligi, ishchi o‘rinlari qisqarishiga sabab bo‘lib, oqibatda milliy iqtisodiyotga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Soliq tizimini isloh qilishda soliq turlari sonini optimallashtirish, soliq imtiyozlarining shaffofligi va maqsadliligini ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Bu borada bizning yondashuvimiz **sanksiya yoki soliqlar orqali emas, balki rag‘batlantirish yo‘li bilan ekologik standartlarni joriy etishdir.**

Iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi daromadlarini oshirish va bu jarayonlarda soliqlar masalasi haqida gap ketganda “Adolat” sotsial-demokratik partiyasining **“ko‘p daromad topgan ko‘p soliq to‘laydi”** tamoyiliga ko‘ra soliqqa tortishning progressiv stavkalarini hayotga joriy etish va shu orqali daromadlar tengsizligini kamaytirish **tashabbusiga ham mutlaqo qo‘shilmaymiz.**

Sababi bu, bir tomondan, iqtisodiy harakatchanlik, daromadga nisbatan motivatsiyani kamaytirsa, ikkinchidan, huquqdagi tenglik, qonunlarning barchaga teng va bir xil qo‘llanishi prinsipiga ham daxl qiladi. Agar asosiy maqsad soliqlarni kamaytirib, aholi daromadlarini oshirish bo‘lsa, tenglik tamoyilidan kelib chiqib, bu tashabbusni topgan daromadidan qat’i nazar, barcha uchun joriy etish imkoniyatlari haqida o‘ylash kerak. Boshqacha aytganda, **“daromadlar tengsizligini kamaytirish”**ni ko‘p daromad topganlarga soliq yukini ko‘paytirish hisobiga amalga oshirmaslik lozim.

PARTIYA “YASHIL” IQTISODIYOTGA O‘TISHNI HAR TOMONLAMA QO‘LLAB-QUVVATLAYDI!

Jahon banki bu yil mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti **5,3 foiz** o‘sishini prognoz qildi. Bu ko‘pgina davlatlar bilan solishtirganda ancha yuqori ko‘rsatkichdir. **Xalqaro valyuta jamg‘armasi** e’tirof etganidek, 2023-yilda yalpi ichki mahsulotimiz ilk marotaba **100 milliard dollardan** oshdi.

Bu natijalarni yanada rivojlantirish va mamlakat iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishni, bugungi zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitidan kelib chiqsak, amaldagi tartiblar, ishlab chiqarish quvvatlari orqali amalga oshirish qiyinligini partiya yaxshi tushunadi.

Shundan kelib chiqib, “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi o‘z Saylovoldi dasturida sanoatni rivojlantirishda **“yashil” iqtisodiyotga** o‘tish, aholini arzon va muqobil **energiya resurslari** bilan ta’minlash, qazib olinadigan **yoqilg‘ilarga** bog‘liqlikni bosqichma-bosqich kamaytirish kabi aniq g‘oya va tashabbuslarni taklif etadi.

Har yili O‘zbekiston aholisi o‘rtacha **1 million** nafarga oshmoqda. Mamlakatda yaratilgan tadbirkorlik imkoniyatlari, **adolatli, halol va sog‘lom** raqobat asosidagi zamonaviy biznes muhiti natijasida tadbirkorlik subyektlari soni yildan yilga oshib bormoqda. Bu esa, o‘z navbatida, an’anaviy energiya manbalari cheklangani sharoitida muqobil energiya manbalariga talabni yanada oshiradi.

Bu borada partiyaning aholini **energiya resurslari bilan ta’minlash, shuningdek,** qazib olinadigan **yoqilg‘ilarga** bog‘liqlikni bosqichma-bosqich kamaytirishga oid tashabbuslari nafaqat hayotiy zarurat, balki bugungi ekologik muammolar o‘rtaga chiqayotgan sharoitda munosib yechim hisoblanadi.

Mazkur takliflar doirasida qayta tiklanuvchi energiya resurslarini izlash va ulardan foydalanishni rag‘batlantirish, “yashil” texnologiyalarga investitsiyalar kiritishni faollashtirish, energiyatejamkor uskunalar va qurilmalardan keng foydalanish chora-tadbirlarini ko‘rish maqsadga muvofiq bo‘lib, bu nafaqat ekologik jihatdan, balki iqtisodiy samaradorlik nuqtayi nazaridan katta imkoniyatlar beradi.

Shu bois, **partiyaning “yashil” energiyaga o‘tishni rag‘batlantirish tashabbusini** xalqchil va o‘z vaqtida ko‘tarilgan, dolzarb masalalar yechimiga qaratilgan taklif sifatida baholash mumkin. Bu bugungi kunda barchamiz uchun hayot-mamot masalasiga aylangan **havo va atrof-muhit tozaligini ta’minlash** orqali xalqimiz salomatligini mustahkamlashga imkon beradi.

TURIZMNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI

O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish iqtisodiy rivojlanishning muhim komponentlaridan biri bo‘lib, milliy iqtisodiyotning diversifikatsiyasiga, valyuta tushumlarini ko‘paytirish va muvozanatini yaxshilashga, aholi ijtimoiy farovonligini oshirib, mamlakatning tashqi iqtisodiy siyosatini mustahkamlashga yordam beradi. Turizm iqtisodiyotning **zamonaviy drayverlaridan** biri hisoblanib, partiya unga bugun jahon xalqlari o‘rtasida madaniy almashuvlarni kuchaytiradigan, bag‘rikenglik tamoyillarini mustahkamlaydigan qudratli vosita sifatida qaraydi.

Shu jihatdan partiya o‘z dasturida turizm xalqimizning uzoq asrlar davomida yaratilgan va asrab kelinayotgan tarixiy-madaniy merosi bilan chet elliklarni tanishtirish orqali xalqimizning tarixiy taraqqiyoti, madaniyati, san’ati, qadriyatlari haqida ma’lumotlar berish vositasi ekanini alohida ta’kidlab, soha rivojiga qaratilgan xavfsiz turizmni rivojlantirish, startap loyihalarni amalga oshirish yo‘nalishlarida qator taklif va tashabbuslarni o‘rtaga tashlamoqda.

Turizm rivojlanishi tadbirkorlik muhitini yaxshilashga hamda xususiy sektorda yangi loyihalarni ishga tushirishga imkoniyat yaratadi. Bu esa yangi ish o‘rinlari yaratish va bandlikni oshirishga olib keladi, mehmonxona, restoran, transport, logistika, ekskursiya va boshqa xizmatlar sohalarida ko‘plab ish o‘rinlari yaratadi.

ICAO ma’lumotiga ko‘ra, har 8-10 ish o‘rnining bittasi ushbu sohaga tegishli bo‘lmoqda. 2023-yilda mamlakatimizda umumiy qiymati 9,5 trillion so‘mlik 508 ta loyiha amalga oshirilganining hisobiga jami 9492 ta yangi ish o‘rni yaratildi. 183 ta yangi mehmonxona va 232 ta xostel faoliyati yo‘lga qo‘yilib, jami joylashtirish vositalarining soni 5526 taga yetdi. Sayyohlar uchun xizmat ko‘rsatuvchi 810 ta yangi turistik tashkilot va turagentlar faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi natijasida ular soni 2649 taga yetdi.

Shu bois, turizmni rivojlantirish masalasi ham “Milliy tiklanish” demokratik partiyasining asosiy tashabbuslaridan biri bo‘lib, u partiyaning milliy **madaniy meros obyektlarini** muhofaza etish, **tarixiy obidalarni** asrash, **milliy madaniyatni** keng targ‘ib qilish kabi maqsadlariga ham bevosita mos keladi.

To‘g‘ri, so‘nggi yillarda mamlakatimizda turizmni rivojlantirish, sayyohlarni keng jalb etish, turizm infratuzilmasini yaxshilash borasida salmoqli ishlar qilindi. Jumladan, xorijiy sayyohlarni yurtimizga jalb qilish uchun turizm tashkilotlarini aylanma mablag‘ bilan ta’minlash maqsadida Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasidan **50 million dollar** qiymatida kredit ajratilmoqda. Salohiyati yuqori bo‘lgan joylarda master-rejalar asosida turizm maskanlari barpo etilib, ular infratuzilmasini yaxshilash uchun joriy yilda respublika byudjetidan **100 milliard so‘m** yo‘naltirilishi, ularning har biriga **50 million dollar** miqdorida investitsiya jalb qilinishi belgilangan. Shuningdek, bu borada qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi, institutsional islohotlar amalga oshirildi. Lekin mamlakatimizning turizm salohiyati bundan-da katta imkoniyatlarni namoyon qilgani holda iqtisodiyotda turizmning ulushini yanada oshirish uchun barcha sharoitlar mavjuddir.

O‘zbekistonning 2024-yilda sayohat qilish uchun **eng yaxshi davlatlar** ro‘yxatiga kiritilishi va **“World of Statistics”** tomonidan bu haqda e’lon qilinishi mamlakatimizga xorijlik sayyohlar tashrifi hamda sayyohlik eksporti hajmi ortishiga xizmat qiladi.

Bu esa yurtimizda turizm sohasini yangi bosqichga olib chiqishni kun tartibiga qo‘yib, yangi g‘oya va tashabbuslarni talab etadi. Ayni shu jihatdan mazkur masalaga alohida yo‘nalish sifatida qarab, partiya o‘z Saylovoldi dasturida qator taklif va tashabbuslarni ilgari surmoqda.

Xususan, turizm sohasini **umummilliy harakatga** aylantirish, **“ochiq eshiklar”** siyosatini yuritish, **vizasiz kirish tizimini kengaytirish** kabi tashabbuslar o‘z vaqtida ko‘tarilgan hisoblanadi. Jumladan, vizasiz kirish tizimi doirasida amalga oshirilgan so‘nggi islohotlar natijasida 2017-yili mamlakatimizga **2 million 700 ming**, 2018-yilda **5 million 300 mingdan** ortiq sayyoh tashrif buyurgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib, **6 million 626 ming** nafarga yetdi. Birgina 2024-yilning yanvar-iyul oylarida hammasi bo‘lib **4 million 242,9 ming** nafar chet el fuqarosi sayyohlik maqsadlarida O‘zbekistonga kelgan. Bu ko‘rsatkich 2023-yilning mos davri bilan solishtirilganda **562,5 ming nafar**ga yoki **15,3 foiz** oshgan.

Mazkur raqamlarning o‘zi ham partiya tomonidan “ochiq eshiklar” siyosati, vizasiz kirish tizimi borasidagi bildirilgan takliflarning hayotiyligini ko‘rsatadi. Shu sababli bu boradagi takliflarni hayotga tatbiq etishni kechiktirmaslik nafaqat iqtisodiy manfaatlarga, balki partiya maqsad va g‘oyalarida ustuvorlik kasb etadigan milliy qadriyatlar, boy tariximiz va milliy madaniyatimizni jahon xalqlariga keng targ‘ib qilish imkonini beradi.

Bundan tashqari, partiya tomonidan bildirilgan **Turizm assambleyasi kollegial-konsultativ kengashi** faoliyatini tashkil etish, turizmni kompleks rivojlantirish bo‘yicha **2030-yilgacha bo‘lgan strategiyani** ishlab chiqish, milliy turistik mahsulotlar reklamasi — **targeting strategiyasidan,** targ‘ibotda ijtimoiy media imkoniyatlaridan foydalanish kabi tashabbuslarini ijobiy baholash mumkin. Bu g‘oyalar mamlakatda mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish orqali ham ma’naviy, ham iqtisodiy jihatdan yanada yuksalish imkonini beradi.

Albatta, boy tarixiy obidalarga, turizm imkoniyatlariga ega bo‘lish bir yutuq bo‘lsa, ularni keng jamoatchilik va dunyo hamjamiyatiga, sodda aytsak, sayohatchilarga tanitish va targ‘ib qilish alohida vazifadir. Shu sababli partiyaning yuqorida qayd etilgan milliy turistik mahsulotlar reklamasi — targeting strategiyasidan foydalanish, targ‘ibotni kuchaytirishda bugungi kunda asosiy axborot va targ‘ibot manbai vositasi bo‘lgan ijtimoiy media imkoniyatlaridan keng foydalanish tashabbusi juda muhimdir.

Umuman olganda, iqtisodiy taraqqiyot, bu borada turizm sohasini yanada rivojlantirish mamlakatning kelajagi uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Milliy iqtisodiyot, xususan, turizm sohasi rivojlanishining hozirgi holati hamda tizimdagi ijobiy tendensiyalar bu sohani yanada isloh qilish **O‘zbekiston iqtisodiy taraqqiyotining** omili hisoblanadi.

Shu bois, “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi mazkur haqiqatni chuqur anglagan holda barqaror iqtisodiyot va turizmni rivojlantirish bo‘yicha strategik vazifalarni, taklif va tashabbuslarni o‘rtaga tashlamoqda.

Muxtasar aytganda, partiya Saylovoldi dasturida belgilangan g‘oya va tashabbuslarning hayotga izchil tatbiq etilishi milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirib, yurtimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini ta’minlashga, pirovardida esa strategik maqsad bo‘lgan **O‘zbekistonning 2030-yilga borib jon boshiga hisoblaganda aholisi daromadlari o‘rtacha ko‘rsatkichdan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan joy olishiga** xizmat qiladi.

Nazira MUXTOROVA,
Oliy Majlis Senati a’zosi,

Farhod ZAYNIYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

“MILLIY TIKLANISH” DEMOKRATIK PARTIYASI VA UNING NOMZODLARIGA OVOZ BERING!

Qayta tiklanuvchi energiyani rivojlantirish orqali tabiiy resurslardan oqilona foydalanish — bugunning eng dolzarb masalasi.

YANGI O‘ZBEKISTON
2024-yil 3-oktabr, 200-son
www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

O‘ZBEKISTON EKOLOGIK PARTIYASI:

BIZNING MAQSAD – “YASHIL” IQTISODIYOT UCHUN YASHIL CHIROQNI YOQISH

O‘EP
O‘zbekiston Ekologik partiyasi

Iqtisodiyotni “yashillashtirish”, yildan yilga muttasil o‘sib borayotgan energiyaga ehtiyojni “yashil” energiya va boshqa muqobil energiya turlariga o‘tish asosida ta’minlash tobora dolzarb vazifaga aylanib bormoqda. Global tus olayotgan iqlim o‘zgarishining oldini olish, oqibatlarini bartaraf etish rivojlanish yo‘lidagi muhim qadam ekani jahon hamjamiyati tomonidan e’tirof etilmoqda. Butun dunyoda boshlangan bu sa’y-harakatlarga O‘zbekiston ham faol qo‘shilmoqda.

“Yashil” iqtisodiyotga o‘tishdagi ilk odim energetika sohasini, xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishdir. Bu esa tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ularni tejash bilan birga ekologik muvozanat barqarorligini ham ta’minlaydi.

Bugun mamlakatimizda energetik barqarorlikni ta’minlash, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish, elektr tarmoqlarini yangilash va modernizatsiya qilish, sohani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish borasida dadil qadamlar tashlanib, salmoqli natijalarga erishilmoqda. So‘nggi yetti yilda sohada, avvalo, huquqiy baza mustahkamlandi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish maqsadida mamlakatimizda “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi qabul qilindi.

Mamlakatimizda sanoatning tez sur’atda rivojlanishi, aholi soni va turmush darajasining oshishiga mutanosib ravishda energiyaga talab ham muttasil o‘smoqda. Bu energiya ishlab chiqarish quvvatlarini yanada kengaytirishni talab etadi.

Bugun Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida umumiy quvvati **2,4 gigavatt** bo‘lgan **9 ta** quyosh va **1 ta** shamol elektr stansiyasi **“yashil” energiya** ishlab chiqarmoqda. Kelgusida Qoraqalpog‘istonda umumiy quvvati **8300 megavatt**, Navoiy viloyatida **1200 megavatt**, Samarqand viloyatida **1000 megavatt**, Surxondaryo viloyatida umumiy quvvati **2017 megavatt** bo‘lgan, shuningdek, boshqa viloyatlarda ham quyosh, shamol va gibrid elektr stansiyalarini ishga tushirish rejalashtirilgan.

Sohadagi tizimli ishlar natijasida 2026-yilga borib, O‘zbekistonda umumiy quvvati **5000 megavatt**, 2030-yilda esa **18000 megavatt**dan ortiq bo‘lgan quyosh va shamol elektr stansiyalari ish boshlaydi. Mazkur “yashil” loyihalar ishga tushirilgach, 2030-yilda yiliga **50 milliard kilovatt/soat** elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyati yaratiladi.

Aholi va ijtimoiy obyektlar hamda tadbirkorlik subyektlari ehtiyojini qoplash uchun kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini barpo etish loyihalari ham faol qo‘llab-quvvatlanmoqda. Xususan, jismoniy shaxslarga tegishli quyosh panellari ishlab chiqargan va iste’moldan ortgan elektr energiyasini davlat tomonidan sotib olish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.

Tabiiy resurslarda kelajak avlodlarning ham biz bilan birdek haqqi borligini hisobga olgan holda, O‘zbekiston Ekologik partiyasi 2024-2029-yillarga mo‘ljallangan Saylovoldi dasturida elektr energetikasi sohasini “yashillashtirish” borasida aniq tashabbus va tavsiyalarni taklif etmoqda.

Birinchidan, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish jarayonida aholi va iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini xavfsiz hamda barqaror energiya bilan ta’minlash.

Bugun energetika tarmog‘idagi ko‘plab asosiy va taqsimlovchi tarmoq podstansiyalari hamda transformator stansiyalari ma’nan eskirgani va tizimda yangilanishlar jarayoni nisbatan sust borayotgani oqibatida sohada texnologik yo‘qotishlar yuqoriligicha qolmoqda. Misol uchun, mavjud magistral tarmoqlarda elektr energiyasining texnologik yo‘qotishi o‘rtacha **2,7 foizdan**, taqsimlovchi tarmoqlarda **12,4 foizdan** ortiqni tashkil etib, bu xorijiy mamlakatlardagi ko‘rsatkichdan yuqori hisoblanadi.

Mana shundan kelib chiqib, O‘zbekiston Ekologik partiyasi **sanoatda energiyatejamkor texnologiyalarni joriy etish orqali energiya sarfini 50 foizga qisqartirish**, **2030-yilgacha energiya balansida ekologik toza va qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini kamida ikki karra oshirish**ni maqsad qilgan.

O‘zbekistonda ishlab chiqariladigan jami elektr energiyasining 40 foizini qayta tiklanuvchi energiya manbalari hissasiga yetkazish natijasida yiliga qariyb **15 milliard kub metr** tabiiy gaz tejalishiga erishiladi va atmosferaga chiqariladigan zararli gaz miqdori **21 million tonnaga** kamayadi.

O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasining Saylovoldi dasturida “kelgusi **5 yillikda** mavjud energiya quvvatlarining kamida **30 foizini** muqobil energiya manbalari tashkil etishiga erishish” g‘oyasi ilgari surilmoqda.

E’tibor qaratsak, “Adolat” SDPning Saylovoldi dasturida ilgari surilgan ushbu g‘oya “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini **25 ming megavatt** hamda jami iste’moldagi ulushini **40 foizga** yetkazish bo‘yicha belgilangan ko‘rsatkichga nisbatan **10 foiz** pastdir.

Qayta tiklanuvchi energiyani rivojlantirishga ehtiyoj yuqori bo‘lgan bir vaqtda partiyaning bunday pozitsiyasi turli talqin va tushunmovchiliklarga sabab bo‘lishi mumkin deb hisoblaymiz.

Shuningdek, O‘zLiDeP Saylovoldi dasturida ko‘mir, mazut kabi energiya manbalari atrof-muhitga kuchli zarar yetkazayotgani, ular o‘rniga bosqichma-bosqich **ekologik toza geotermal** va boshqa qayta tiklanuvchi energiya turlarini keng yo‘lga qo‘yish talab etilishi ta’kidlanmoqda.

Qayd etish joizki, geotermal resurslar odatda vulqon va seysmik faollik kuchaygan zonalarda to‘planib, yer ostidan yoki yerda saqlangan issiqlikdan olinadigan (bug‘ yoki issiq suv shaklida) energiya hisoblanadi.

O‘zbekiston hududida foydalanish mumkin bo‘lgan yer qa’rida joylashgan geotermal resurslar zaxirasi 5-6 kilometrgacha chuqurlikda joylashgani, ishlab chiqarish tannarxi qimmatga tushishi hisobga olinsa, yaqin kelajakda geotermal resurslardan faqat issiqlik energiyasi (kommunal sohada uylarni isitish va issiq suv bilan ta’minlash) sifatida foydalanish mumkin.

Shu tufayli O‘zLiDeP Saylovoldi dasturidagi bu g‘oyani ham kelgusi 5 yilda amalga oshirish imkoniyati cheklangan deb hisoblaymiz.

O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi Saylovoldi dasturida *elektr jamoat transporti vositalari* ulushini ko‘paytirish, **bepul *elektr quvvatlash stansiyalarini*** o‘rnatishni tashkil etish ustida faol ish olib borish taklif etilmoqda.

Xalq demokratik partiyasi **bepul *elektr quvvatlash stansiyalarini*** o‘rnatishni tashkil etish taklifini ilgari surishdan avval bepul beriladigan elektr energiyasi xarajati kim tomonidan va qaysi mablag‘lar hisobidan qoplanishini tahlil qilmagan bo‘lsa kerak.

Bugun mamlakatimizdagi elektromobillar soni **35 ming**dan oshgani, bitta elektromobilga bir hafta yurishi o‘rtacha **45 kilovatt** elektr energiyasi sarflanishi va **1 kilovatti** o‘rtacha **2700 so‘m** turishi hisobga olinsa, ayni paytda mamlakatimizdagi elektromobillarning bir yillik xarajati qariyb **230 milliard so‘mga** yetishi oydinlashadi.

Elektromobillar sonining har yili o‘rtacha **50 ming** donadan ko‘payib borishi, bepul elektr energiyasi sarfi oshishi va keyingi **5 yildan** keyin ularning soni qariyb **300 ming**ga borishi mumkinligi taxmin qilinsa, bu summa **10 trillion so‘mdan** oshib ketadi. Bu o‘z o‘rnida “xarajatlar soliq to‘lovchilar zimmasiga tushib, davlat byudjetidan qoplanadimi?” degan tabiiy savol tug‘dirmaydimi?

Partiyamiz mamlakatimizda **iste’molchilarni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta’minlashning** asosiy zamini quyidagilar bo‘lishi kerak deb hisoblaydi:

— iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalarda **energiya tejovchi texnologiyalarni** joriy etish va energiya samaradorligini oshirish, iste’molchilarning **elektr energiyasidan oqilona foydalanishini rag‘batlantirishga** qaratilgan iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish;

— energiyaga ortib borayotgan talabni qondirish maqsadida elektr energiyasini ishlab chiqarish, yetkazib berish va taqsimlashda **energiya yo‘qotishlarini kamaytirish** orqali samaradorlikka erishish;

— elektr uskunalari va **tarmoqlarini bosqichma-bosqich rekonstruksiya qilish** va yangilash hisobiga elektr uskunalaridagi yo‘qotishlarning oldini olish;

— **qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan** foydalanishni yanada rivojlantirish, kengaytirish va ularni **yagona elektr tizimiga integratsiyalash**;

— **elektr energetika bozorining** samarali modelini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Partiyamiz Saylovoldi dasturidan o‘rin olgan **yirik sanoat korxonalarida mikroenergetika ishlab chiqarish manbalarini joriy etish**, **2050-yilgacha 60-80 foiz uylarning isitish tizimini qayta tiklanuvchi energiya manbalari hisobidan** qoplash bo‘yicha dastur qabul qilishga oid muhim takliflar mamlakatimizda energiya samaradorligini oshirishda, shubhasiz, katta qadam bo‘ladi.

Iqtisodiyotning barcha sohasida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishga o‘tish va bu **jarayonni rag‘batlantirishning uzviy mexanizmlarini yaratish** taklifi ham Saylovoldi dasturidan o‘rin olgan. Jumladan, aholi xonadonlarida **kichik hajmdagi qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rag‘batlantirish** tizimini joriy etish sohaga investitsiyalarni keng jalb qilish, aholi orasida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni yanada keng ommalashtirishga xizmat qiladi.

Avvalo, chekka va olis hududlarda qayta tiklanuvchi va muqobil energiya manbalaridan foydalanuvchilarni faol qo‘llab-quvvatlash, ular uchun jozibador loyihalarni taklif etish zarur deb hisoblaymiz.

Misol uchun, partiyamiz qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini xarid qilgan va undan foydalanishni yo‘lga qo‘ygan **barcha turdagi iste’molchilar uchun mazkur qurilma xarid qiymatining 50 foizini davlat tomonidan subsidiyalash** tizimini joriy etishni taklif etmoqda. Bundan tashqari, **energiya tejovchi arzon uy-joylar qurish** bo‘yicha loyihalarni rag‘batlantirish tizimini joriy etish bo‘yicha taklifimiz ham ayni bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan.

Ikkinchidan, qayta tiklanuvchi energiyani rivojlantirish orqali tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bugunning eng dolzarb masalasiga aylanmoqda.

Parij bitimi doirasida O‘zbekiston 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan issiqxona gazi tashlanishini **35 foiz** kamaytirish majburiyatini olgan. Partiyamiz tomonidan ilgari surilayotgan qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish evaziga **qazib olinadigan yonilg‘i resurslarini kelgusi avlod uchun zaxira sifatida saqlash**ga erishishga oid takliflar karbonat angidrid gazini **5 million tonna**ga kamaytirish imkonini ham beradi.

Tadqiqotlarga ko‘ra, O‘zbekiston uglevodorod energiyasi — neft, gaz, ko‘mirdan foydalanish hisobiga har yili yalpi ichki mahsulotning kamida **4,5 foizi**ni yo‘qotmoqda. Shu bois, mamlakatimizda ham iqtisodiy, ham ekologik jihatdan samarali hisoblangan “yashil” energetikaga o‘tish har jihatdan afzal.

Saylovoldi dasturida belgilangan **vodorod energetikasini rivojlantirish va undan foydalanishni qo‘llab-quvvatlash** ham bugungi kun uchun yangi va istiqbolli yo‘nalishlardan biridir. Qator rivojlangan mamlakatlarda uglevodorod resurslari o‘rnini boshqa manbalar hisobiga qoplash, jumladan, “yashil” vodorod energetikasini rivojlantirishga jiddiy e’tibor qaratilmoqda.

Uchinchidan, partiya global iqlim o‘zgarishlari sharoitida mamlakat ekologik xavfsizligini ta’minlash va barqaror ekologik rivojlanishga asoslangan iqtisodiyotni barpo etish tarafdoridir.

Ushbu g‘oyani amalga oshirish uchun O‘zbekiston Ekologik partiyasi Saylovoldi dasturida qator vazifalar belgilanganini qayd etishimiz lozim. Jumladan:

— **ekologik toza** mahsulotlar ishlab chiqaruvchi **tadbirkorlik subyektlarini qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod etish**;

— iqlim o‘zgarishiga moslashish va uning oqibatlarini yumshatishga qaratilgan **iqlimiy moliyalashtirish** tizimini joriy etish;

— **“yashil” innovatsiyalarni joriy etish**da xususiy investorlarni qo‘llab-quvvatlash, davlat-xususiy sheriklikni va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish;

— tijorat banklari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslar uchun **“yashil” depozit xizmatlar ko‘rsatish** tizimini joriy etish va bunday mijozlar uchun alohida **imtiyozli bank tariflarini qo‘llash**, **“yashil”** va **raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun investitsiya fondini tashkil qilish**.

> **Xalqimizni, ekologiyaga befarq bo‘lmagan barcha fuqarolarni dasturimizda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda, atrof-muhitni muhofaza qilish va bebaho tabiiy boyliklarni asrab-avaylashdek muhim maqsadlarga erishishda birgalikda faol ishtirok etishga chaqiramiz.**

“Yashil” iqtisodiyotga o‘tish birdan amalga oshadigan jarayon emas, albatta. Bu borada qanday moliyaviy dastaklardan foydalanish muhimligini e’tibordan chetda qoldirmasligimiz zarur. Ayniqsa, bu jarayonda davlatning o‘rni, bozor mexanizmlari uchun yaratilayotgan shart-sharoit sohaning rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Ekologik partiyasi “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishning moliyaviy asoslarini to‘liq davlat budjetiga yuklash tarafdori emas. Ayni vaqtda har qanday tadbirkorlar va biznes yurituvchilarga **“yashillik” uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, “yashil” loyihalarni hayotga tatbiq etuvchilarga imtiyozlar berish, “yashil” iqtisodiyot tamoyillari asosida faoliyat yuritishi** uchun rag‘batlantirish va motivatsiya uyg‘otish biz ko‘zlayotgan maqsadlarga erishishning ustuvor yo‘nalishiga aylanadi.

Bugun mamlakatimizda korxona va tashkilotlarga, aholining turli qatlamlariga muqobil energiya manbalaridan foydalanish, kam uglerodli iqtisodiyotga o‘tishda ishlab chiqarish jarayonida uglerod sarfini kamaytirish, “yashil” texnologiyalarni qo‘llash va tegishli uskunalar xarid qilish uchun imtiyozli yoki foizsiz kreditlar berilmoqda, subsidiya hamda grantlar, soliq imtiyozlari taklif etilyapti.

Bizning fikrimizcha, bu jarayonlarni yanada kengaytirish, ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizda **“yashil” ishlab chiqaruvchi”** va **“yashil” iste’molchi”larning** namuna sifatida alohida ajralib turishiga erishishimiz zarur. Boshqacha aytganda, “yashil” iqtisodiyotga kamarbasta bo‘layotganlarga yashil chiroq doim yoniq bo‘lishi shart.

To‘rtinchidan, partiyamizning diqqat markazida bo‘lgan vazifalardan yana biri — atmosfera havosiga chiqarilayotgan zaharli gaz miqdorini kamaytirish va ekologik xavfsizlikni ta’minlashdir.

“Yashil” iqtisodiyotning asosiy talabi, avvalo, umumiy iqtisodiyotni tabiat va **atrof-muhitga zarar yetkazmasdan rivojlantirishdan** iborat.

Ma’lumotlarga ko‘ra, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda atmosfera havosiga tashlanmalar miqdori yiliga **2 million tonna**dan oshayotgan bo‘lsa, shundan **63 foizi** transport vositalari, **37 foizi** sanoat va ishlab chiqarish korxonalari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Saylovoldi dasturimizdan **atmosfera havosi ifloslanishi muammosi**ga yechim bo‘ladigan qator takliflar o‘rin olgan.

Biz bu muammoga yechim bo‘ladigan — **jamoat transportini elektrobuslar hisobidan rivojlantirish, elektrobuslarni zaryadlash stansiyalarini qurish uchun tadbirkorlarga yer maydonlari ajratish** hamda 2050-yilga qadar **uglerod neytralligi** va **nol emissiyaga erishish** kabi muhim tashabbuslarni ilgari surmoqdamiz.

Partiya bugun avtomobilsozlik sanoati jadal sur’atda rivojlanib borayotgani, an’anaviy yonilg‘i bilan ishlaydigan avtomobillar ekologik va iqtisodiy jihatdan samara bermasligi hamda dunyo miqyosida avtomobilsozlikda ekologik toza elektromobillar ishlab chiqarishga o‘tish jarayoni shiddat bilan rivojlanayotganini hisobga olib, **2035-yilgacha avtomobilsozlik sanoatini to‘liq elektromobil ishlab chiqarishga ixtisoslashtirish** tashabbusi bilan chiqmoqda.

Bugun Xitoy, Yevropa Ittifoqi, AQSH kabi yirik avtomobil ishlab chiqaruvchilar elektromobil ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida ko‘plab moliyaviy va infratuzilmaviy dasturlarni amalga oshirmoqda. Yirik avtomobil kompaniyalari o‘z strategiyalarini qayta ko‘rib chiqib, elektromobil ishlab chiqarishga katta e’tibor qaratmoqda.

Mamlakatimizda avtomobilsozlik yo‘nalishini elektromobillarga ixtisoslashtirishda ular uchun zarur quvvatlantirish stansiyalarini tashkil etish **va texnik xizmat ko‘rsatish infratuzilmasini rivojlantirish** muhim deb hisoblaymiz.

Dunyoda inson faoliyati natijasida har yili atmosferaga **20 milliard tonna karbonat angidrid gazi** chiqariladi va **300 million tonnadan** ortiq plastik chiqindi hosil bo‘ladi. Partiya “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini izchil amalga oshirishda **barqaror ishlab chiqarish va iste’molning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi**, shuningdek, **kam uglerodli, resurslarni tejovchi texnologiyalarni joriy qilish** zarur deb hisoblaydi.

Umuman olganda, O‘zbekiston Ekologik partiyasi Saylovoldi dasturida belgilangan strategik vazifalarni amalga oshirish partiyamizning bosh maqsadi, ya’ni mamlakatimizning barqaror rivojlanishiga, ekologik xavfsizligiga erishish hozirgi va kelajak avlod uchun qulay atrof-muhitni yaratish hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga yo‘naltirilgan davlat siyosatini ro‘yobga chiqarish bilan bir qatorda, iqtisodiyotning barcha tarmoqlari o‘sishi va yuksalishiga, aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Xalqimizni, ekologiyaga befarq bo‘lmagan barcha fuqarolarni dasturimizda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda, atrof-muhitni muhofaza qilish va bebaho tabiiy boyliklarni asrab-avaylashdek muhim maqsadlarga erishishda birgalikda faol ishtirok etishga chaqiramiz.

Ona tabiatimizni asrash masalasiga befarq bo‘lmang!

Bahriddin HOFIZOV,
O‘zbekiston Ekologik partiyasi markaziy kengashi ijroiya qo‘mitasi raisining birinchi o‘rinbosari vazifasini bajaruvchi,

Mohira XODJAYEVA,
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati

O‘ZBEKISTON EKOLOGIK PARTIYASI VA UNING NOMZODLARIGA OVOZ BERING!

Yangi O‘zbekiston – ma’rifiy jamiyat

> Quduq naqadar chuqur bo‘lsa, suvi shu qadar xushta’m bo‘ladi. Asl pedagogning qalb qudug‘i ham shunday chuqurki, o‘quvchilar unga talpinaveradi, talpinaveradi. Uning og‘zidan chiqqan har bir gap o‘quvchilar qalbiga yo‘l topadi. Yoshlar kelajagi bilan bog‘liq har qanday vazifa esa muhimdir.

UCHINCHI RENESSANS KASHFIYOTCHILARI

Mohir pedagog bola qalbidagi olmosni ilg‘aydi

INSON KAPITALINING ASOSIY DRAYVERI

Bashorat YUNUSOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Bir davr boshqa bir davrning ko‘zgusi: odamga voqealarni, hodisalarni tahlil qilish orqali qadrlashga, shukr qilishga yoki xatolardan xulosa chiqarishga va ularni tuzatishga imkon beradi. Odatda insonga jamiyatni, jamiyatga esa davlatni o‘zgartira olishga qodir kuch sifatida qaraladi. Aql-zakovatda tengsiz, tafakkuri teran, shuuri toza jamiyatga ega davlat yengilmasdir. Unga davrlarning talato‘p-u buhronlari ta’sir o‘tkaza olmaydi. Har qadamda yuz berayotgan o‘zgarishlarga sezgir bo‘ladi, mayda manfaatlar orasida o‘z qobig‘iga o‘ralashib qolmaydi. Tanlagan maqsadidan — o‘z yo‘lidan og‘ishmay taraqqiyot sari intiladi.

Prezidentimiz 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida ilm-fan, zamonaviy va uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish zarurligini ta’kidlab, inson kapitaliga e’tibor qaratish lozimligiga alohida urg‘u berdi. “Xalqimizda “Ta’lim va tarbiya beshikdan boshlanadi” degan hikmatli bir so‘z bor. Faqat ma’rifat insonni kamolga, jamiyatni taraqqiyotga yetaklaydi. Shu sababli ta’lim sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta’lim tizimi prinsipiga asoslanishi, ya’ni ta’lim bog‘chadan boshlanishi va butun umr davom etishi lozim. Rivojlangan mamlakatlarda ta’limning to‘liq sikliga investitsiya kiritishga, ya’ni bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo‘lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e’tibor beriladi. Chunki ana shu sarmoya jamiyatga 15-17 barobar miqdorda foyda keltiradi. Bizda esa bu ko‘rsatkich atigi 4 barobarni tashkil etadi. Binobarin, inson kapitaliga e’tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart”, deya ta’kidladi. Aynan shu kundan e’tiboran nutqimizda “inson kapitali”, “inson resursi” atamalari keng qo‘llanila boshladi.

Bugun zamon jadal sur’atda rivojlanmoqda, sal oqsagan yoki o‘zgarishlarga e’tiborsiz qolgan mamlakatlarni kechirmayapti. Globallashuv sharoitida butun dunyo yagona mehnat bozoriga aylanayotir. Ayrim davlatlar, xususan, demografik muammolarga ro‘baro‘ kelayotgan mamlakatlarning malakali mutaxassislarga ehtiyoji tobora ortmoqda. Turli grantlar e’lon qilish orqali o‘qishga chorlamoqda, katta maosh evaziga ish o‘rinlariga takliflar bilan chiqmoqda. Demak, ular tashqaridan inson resurslarini jalb etmoqda. Har bir davrda, har bir mamlakatga kuchli kadrlar suv va havodek zarur. Chunki mamlakat taraqqiyoti, kelajagi bevosita kadrlar salohiyatiga bog‘liq. Ularni tarbiyalash esa maktab partasidan, yanayam jiddiy qarasak, bog‘cha yoshidan boshlanadi.

Inson kapitaliga e’tibor qaratilishi ortidan ta’lim tizimiga, xususan, o‘qituvchilarga e’tibor kuchaydi. Yillar davomida qadrsizlanib borayotgan bu ulug‘ kasbning obro‘sini tiklash harakati boshlandi. Natijada “Bu o‘qituvchi”, desa uyaladigan pedagoglar “Men o‘qituvchiman!” deya o‘zidan faxrlanadigan bo‘ldi. Har yili bir mavzuni takrorlab, bolalarni o‘qitib keladigan o‘qituvchilar ijodkor pedagoglarga aylanmoqda. Ular telefon-u gadjetlarga muttasil bog‘lanib borayotgan, hatto ota-onalarning an’anaviy tarbiya usullari o‘zini oqlamay qolayotgan, bolalar diqqatini tortish mushkul bugungi davrda ularni hayratlantira oladigan, darsga bog‘laydigan, mavzularni oson tushunadigan metodlar izlamoqda.

Bir maqsadga erishish, tabiiyki, o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi. G‘alaba osonlik bilan kelmaydi. Yillar davomida qilingan mehnat, chekilgan zahmatlar evaziga qo‘lga kiritiladi.

O‘zbekistonda o‘zgarishlar davri boshlanganiga hali ko‘p bo‘lmadi. Dastlabki yillarda har bir sohada uzoqni ko‘zlab puxta rejalar tuzildi, aniq maqsadlar qo‘yildi. So‘ng amaliy harakatlarga o‘tildi. Muhimi, ezgu niyat bilan qadam tashlangani. Bu yo‘lni hech qayerga og‘ishmay bosib o‘tish va marraga yetish uchun endi bir oz vaqt, hafsala va harakat kerak. Demak, mana shunday pallada o‘qituvchi-murabbiylar insonlarning ongu tafakkuriga ta’sir ko‘rsatuvchi, hayotimizni o‘zgartirishga ko‘maklashuvchi asosiy kuchdir. Bugungi til bilan aytganda, o‘qituvchi va murabbiylar inson kapitalining asosiy drayveriga aylanishi kerak. Zero, “Eng katta boylik — bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros — bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik — bu bilimsizlikdir”.

Chindan ham bugun biz ulug‘ niyatlar bilan poydevor qo‘yayotgan yangi Uyg‘onish davri mana shunday ulkan boylik yaratishga, xalqimiz hayotini farovon qilishga va kelgusi avlodlarga o‘zimizdan munosib meros qoldirishga xizmat qiladi.

O‘ZBEKISTONDA ENG OBRO‘LI INSON MUALLIM BO‘LISHI KERAK

Yangi O‘zbekiston islohotlari fonida ta’lim tizimidagi yangilanishlar o‘qituvchi-pedagoglarni maktabga qaytarishdan boshlandi. 2018-yil 14-avgust kuni “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror imzolanib, unga ko‘ra, xalq ta’limi xodimlarini xizmat majburiyati bilan bog‘liq bo‘lmagan ishlarga, majburiy mehnatga, shu jumladan, tuman va shaharlar hududlarini obodonlashtirish hamda ko‘kalamzorlashtirish, mavsumiy qishloq xo‘jaligi, boshqa turdagi ishlarga jalb qilish taqiqlandi. Bu bilan keng jamoatchilik ham o‘qituvchilar qadrini ko‘tarishga astoydil bel bog‘laganini alohida eslab o‘tish joiz.

Bugun ishlayman degan pedagogga barcha sharoit muhayyo. Pedagoglarimizning moddiy manfaatdorligini oshirish maqsadida qator oylik ustamalar belgilandi. Xalqaro darajada tan olingan sertifikatga ega o‘qituvchilarning ish haqi miqdori sezilarli oshdi. Shuningdek, vazir jamg‘armasi, direktor jamg‘armasi ishlab turibdi, qolaversa, olis hududga borib ishlaydigan o‘qituvchilarga alohida ustama va imtiyozlar berilmoqda. O‘quvchilari xalqaro olimpiadalarda g‘olib bo‘lgan pedagoglarga BHMning 450 baravarigacha mukofot ajratiladi. Ayni paytda umumta’lim maktablarining 6000 dan ziyod pedagogi 1000 AQSH dollaridan yuqori miqdorda ish haqi olmoqda. Bu raqamlar yildan yilga ortib bormoqda va yuqori maosh olishga hech qanday cheklov belgilanmagan. O‘z ustida ishlagan o‘qituvchi borki, albatta, mehnatiga yarasha rag‘bat topadi.

Pedagoglarning xorijda ta’lim olishi, malaka oshirib, tajriba to‘plashiga keng o‘rin berilmoqda. Buni rivojlangan mamlakatlarda o‘qib kelib, tajribasini hamkasblari bilan o‘rtoqlashayotgan, ta’lim jarayoniga tatbiq etayotgan pedagoglar faoliyati misolida ko‘rish mumkin.

Uzoqqa bormaylik, oilamizda, qo‘ni-qo‘shnilarimiz, qavm-u qarindoshlarimiz orasida o‘qituvchi-pedagoglar bor. Ularning hayotiga bir razm solsak, aksariyatining hayotidan rozi yashayotganiga, turmushi farovon bo‘lib borayotganiga, pirovard natijada o‘z ustida ishlayotganiga, o‘sayotganiga guvoh bo‘lamiz.

Ilgari o‘qituvchilar hatto o‘z hududidan uzoqroq joylarga, boshqa viloyatlarga paxta terimiga yuborilar, bu majburiyat bir mavsum davomida uning ham ruhiy, ham jismoniy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmay qolmasdi. Bundan tashqari, obodonlashtirish ishlariga jalb etilishi natijasida o‘z ustida ishlashga, yangilik yaratishga, ijod qilishga vaqti bo‘lmadi. Tabiiyki, qilayotgan ishidan ko‘ngli to‘lmagan, yaxshi ko‘rgan ishini bajarishiga to‘siq qo‘yilgan jamiyatda odamning kelajakka ishonchi so‘nadi.

Bugun bu ishonch qayta tiklanmoqda. Ko‘klamda quyoshning ilk nurlari tabiatga hayotbaxsh umid bergani kabi yangilanishlar ham o‘qituvchi va murabbiylarga yangi imkonlar, umidlar tuhfa etayotir.

DAVLAT O‘QITUVCHILARGA G‘AMXO‘RLIK QILADI

Ta’lim faoliyatini takomillashtirish, yoshlarning ta’lim-tarbiyasi, o‘quv muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, pedagog kadrlarni ijtimoiy, moddiy yo‘nalishda qo‘llab-quvvatlash va ularga zarur shart-sharoit yaratish, yoshlar uchun ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish davlat ahamiyatidagi dolzarb masalalardan biriga aylandi. Shuningdek, bu boradagi normativ-huquqiy baza mustahkamlanmoqda.

O‘qituvchilar maqomini, sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilishning yangi tahrirdagi Konstitutsiyada mustahkamlanishi bu boradagi amaliy ishlarning yana bir natijasi bo‘ldi. Bosh qonunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma’naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e’tirof etiladi.

Davlat o‘qituvchilarning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi.

Shu tariqa ustozlar Konstitutsiyada alohida tilga olingan kasb egalari bo‘ldi.

Ta’lim va tarbiya masalasi umummilliy harakatga aylandi. O‘qituvchining mavqeini yuksaltirish, ustoz-muallimlarga munosib shart-sharoitlar yaratish maqsadida pedagog xodimlarning ish haqi bosqichma-bosqich oshirib borilmoqda.

Joriy yil fevralida yana bir muhim hujjat — “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Qonun bilan pedagoglarning huquqlari, majburiyatlari, faoliyatining asosiy kafolatlari, mehnatiga yarasha haq to‘lash, rag‘batlantirish va ijtimoiy himoya qilish tamoyillari belgilandi. Eng muhimi, pedagogni kasbiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan ishlarga, shu jumladan, hududlarni obodonlashtirishga va qishloq xo‘jaligi ishlariga jalb qilish; pedagogdan uning kasbiy majburiyatlariga taalluqli bo‘lmagan hisobotlarni va boshqa ma’lumotlarni, shu jumladan, bitiruvchilarning bandligi ta’minlanganligi haqidagi hisobotlarni shakllantirishini va taqdim etishini talab qilish; pedagogning zimmasiga tovar va xizmatlarni sotib olish majburiyatini yuklash, shu jumladan, ish haqidan uning yozma roziligisiz tovar va xizmatlar uchun mablag‘ ushlab qolish taqiqlandi.

Mazkur qonun bilan yurtimizdagi 700 mingga yaqin pedagogning huquqlari, majburiyatlari hamda faoliyatining asosiy kafolatlari belgilandi.

Yana bir e’tiborli jihati, qonunda pedagoglarga qisqartirilgan ish vaqti belgilanishi kafolatlangan. Doktorlik dissertatsiyasi, darslik va o‘quv qo‘llanmalar yozish uchun ijodiy ta’til berilishi nazarda tutilgan.

O‘qituvchilarga mualliflik dasturlarini va o‘qitish uslubiyatini joriy etish, zamonaviy pedagogik vositalarni erkin tanlash, davlat axborot-resurs markazlari xizmatidan bepul foydalanish kabi qator imkoniyatlar berilyapti.

Pedagoglar kasbiy faoliyatini amalga oshirish chog‘ida sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘sini himoya qilish uchun, shuningdek, o‘z huquqlarini buzayotgan davlat organlarining qonunga xilof qarorlari, mansabdor shaxslarning xatti-harakati ustidan sudga da’vo arizasi bilan murojaat qilgan taqdirda davlat bojini to‘lashdan ozod qilinadi.

Ayni paytda pedagog kadrlarning malaka toifasini oshirish tizimida ham ortiqcha rasmiyatchilik va qog‘ozbozlikka chek qo‘yilgan. Bu jarayon bilimini muntazam oshirib borishdan manfaatdor, kasbiga mehr qo‘ygan fidoyi, mahoratli muallimlar uchun yana bir imkoniyat.

Yuksak e’tibor topayotgan pedagoglar kasbiy majburiyatini bajarish chog‘ida etika qoidalariga rioya etishi zarurligi ham qonun nazaridan chetda qolmagan. Pedagogik etika qoidalarini bilish va ularga amal qilish o‘qituvchining o‘z kasbiy majburiyatlarini bajarishining sifat ko‘rsatkichlarini hamda mehnat intizomini belgilaydigan mezon sifatida belgilangan.

Ma’rifatparvar bobomiz Mahmudxo‘ja Behbudiy ta’limning inson kamolotidagi o‘rni haqida “Sizlarg‘a vasiyat qilaman. Maorif yo‘lida ishlaydurg‘on muallimlarning boshini silangizlar! O‘rtadan nifoqni ko‘taringiz! Turkiston bolalarini ilmsiz qo‘ymangizlar”, degan edi.

Buning uchun esa sifatli ta’limga ehtiyoj seziladi. Ta’lim sifatini zamonaviy bilimlarga ega, hayotdan rozi o‘qituvchilarsiz ta’minlab bo‘lmaydi. Shunday ekan, avvalo, o‘qituvchining ijtimoiy va moddiy farovonligi haqida g‘amxo‘rlik qilish, uning hurmatini joyiga qo‘yish talab etiladi.

TA’LIM VA TARBIYADA TANAFFUS BO‘LMAYDI

Yoshlar tarbiyasi, ularning qanday kamol topishi hamisha hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu, ayniqsa, O‘zbekiston kabi taraqqiy etayotgan mamlakatlar uchun dolzarb. Negaki yosh malakali kadrlar mamlakatning jadal rivojiga munosib hissa qo‘shadi. Yoshlar muammolariga oson yechim topsa, o‘qish, ish bilan band bo‘lsa, jamiyatda tinchlik, totuvlik hukm suradi. Shu bois, yoshlar siyosati ustuvor vazifa hisoblanib, uni doim taraqqiy ettirib borish shart.

Bugun dunyoning to‘rt tomonida taraqqiyot sur’atlari misli ko‘rilmagan darajada shiddatli tus olmoqda. Ayni vaqtda azaliy qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy qarashlar tizimida chuqur transformatsiya jarayonlari yuz bermoqda. Ilgari o‘z maqsad va manfaatlarini, asosan, diplomatiya va siyosat bilan himoya qilib kelgan dunyodagi qudratli markazlar endi ochiqchasiga bosim o‘tkazish, qarama-qarshilik va to‘qnashuvlar yo‘liga o‘tganiga hammamiz guvohmiz. Eng yomoni, yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatishni maqsad qilgan axborot xurujlari, ma’naviy tahdidlar avj olayotir. Radikalizm, terrorizm va ekstremizm tahdidlari, diniy nizolar, zo‘ravonlik va shafqatsizliklar ayrim mamlakatlarning kelajagiga xavf solayotgani ham ayni haqiqat. O‘sib kelayotgan yosh avlod vakillari bu kabi xavflardan omon qolishi, ularga qarshi tura olishi uchun ma’naviy kuch kerak. Ushbu masala shu qadar hayotiy ahamiyatga egaki, unga mamlakatimizda ustuvor e’tibor qaratilmoqda.

2023-yil 22-dekabrda Ma’naviyat va ma’rifat masalalari bo‘yicha respublika kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida davlatimiz rahbari “Bugun ma’naviyat boshqa sohalardan o‘n qadam oldinda yurishi kerak, ma’naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi shart! Shu maqsadda xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni sifat va mazmun jihatidan mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarishimiz lozim”, deya ta’kidladi.

Yosh avlodga maktabgacha va maktab yoshidan ta’lim-tarbiya berish, ularni vatanparvarlik, milliy qadriyatlar, ezgu fazilatlarga sadoqat ruhida ulg‘aytirish, yot g‘oyalar ta’siridan asrash muhim. Bu borada yana o‘qituvchi va murabbiylar zimmasiga ulkan vazifa yuklanadi. Ular oila va mahalla hamkorligida bu ishni sidqidildan bajarishi lozim. Ta’kidlash kerakki, ota-onasining gapiga quloq solmagan ayrim bolalar o‘qituvchi yo‘rig‘iga yurganining ko‘p guvohi bo‘lamiz.

30-sentabr kuni davlatimiz rahbari Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutiga tashrif buyurib, yangilangan sharoitlar bilan tanishdi, O‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan davlat mukofotlarini topshirdi hamda soha vakillari bilan ta’limda amalga oshirilayotgan ishlar, kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan muloqot o‘tkazdi. Unda bugungi kunda yurtimizda 37 mingdan ziyod bolalar bog‘chasi, 10 mingdan ortiq maktab borligi, joylarda yana yangilari qurilayotgani aytildi. Prezidentimiz “Insonning ongi, dunyoqarashi o‘zgarmasa, jamiyat o‘zgarmaydi. Jamiyat o‘zgarmasa, taraqqiyot ham bo‘lmaydi. Odamlarning tafakkurini, shu asosda butun jamiyatni kim o‘zgartira oladi? Yangi beruniylarni, xorazmiy va farg‘oniylarni kim kamolga yetkazadi? Bunday ulug‘vor vazifani, tom ma’nodagi tarixiy missiyani ado etishga faqat siz — ustoz va murabbiylar qodirsiz”, deya soha xodimlariga ishonch bildirdi.

YOSH AVLODGA MAKTABGACHA VA MAKTAB YOSHIDAN TA’LIM-TARBIYA BERISH, ULARNI VATANPARVARLIK, MILLIY QADRIYATLAR, EZGU FAZILATLARGA SADOQAT RUHIDA ULG‘AYTIRISH, YOT G‘OYALAR TA’SIRIDAN ASRASH MUHIM. BU BORADA YANA O‘QITUVCHI VA MURABBIYLAR ZIMMASIGA ULKAN VAZIFA YUKLANADI.

Shu kuni Prezidentimiz 1-oktabr — O‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan soha xodimlariga tabrik yo‘lladi. Tabrikda el-yurtimiz azaldan e’zozlab keladigan o‘qituvchi va murabbiylarning maqomini, qadr-qimmatini yanada yuksaltirish davlat siyosatining eng muhim, hal qiluvchi yo‘nalishiga aylangani, maktab ta’limini rivojlantirish umummilliy harakat kasb etgani ta’kidlangan. Pedagoglar, professor-o‘qituvchilar ta’lim sohasidagi islohotlarda yanada faol ishtirok etib, “Yangi O‘zbekiston — ma’rifiy jamiyat” degan olijanob g‘oyani amalga oshirishga munosib hissa qo‘shishga chaqirildi.

Quduq naqadar chuqur bo‘lsa, suvi shu qadar xushta’m bo‘ladi. Asl pedagogning qalb qudug‘i ham shunday chuqurki, o‘quvchilar unga talpinaveradi, talpinaveradi. Uning og‘zidan chiqqan har bir gap bolalar qalbiga yo‘l topadi. Yoshlar kelajagi bilan bog‘liq har qanday vazifa esa muhimdir.

Erkak kishi uchun tanlagan kasbining moliyaviy tomonlari juda muhim. Shu sababli bu haqda tanigan-bilgan ustozlarimdan surishtira boshladim. Ular o‘z ustimda ishlamay, oddiy o‘qituvchi bo‘lib yursam o‘ziga yarasha kun ko‘rishim, biroq barcha imkoniyatlardan foydalansam, 1000 dollardan ziyod maosh olishim mumkinligini aytdi. Xullas, diplomni qo‘lga oldim-u, qishlog‘imizdagi maktabga ishga keldim.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 3-oktabr, 200-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Yuksalish pallasi

BUGUN O‘QITUVCHILAR HECH KIMDAN KAM EMAS

O‘qituvchilikning nonini yeyish oson emas, deydi soha xodimlari bilan suhbatlashsangiz. Darhaqiqat, shunday. Inson uchun ilm o‘rganmoq naqadar qiyin bo‘lsa, o‘rgatmoq undan o‘n karra mashaqqatli. Bugun o‘qituvchi va murabbiylar orasida yoshlar soni tobora ortayotir. Zamon bilan hamnafas harakat qilayotgan, imkoniyatlardan unumli foydalanayotgan, o‘z ustida ishlab, izlanib, salohiyatini namoyon etayotgan yosh pedagoglar ham moddiy, ham ma’naviy rag‘batlantirilmoqda.

Davlatimizning nufuzli mukofotlari bilan taqdirlanayotgan pedagoglar ichida ularning ham salmog‘i yetarlicha. Yana bir gap: ko‘proq harakat qilganlar ko‘prog‘iga loyiq. Deylik, bugun 1000 dollarga teng miqdorda maosh olish moliyaviy tomondan yaxshi holatni ifodalaydi. Ana shunday maosh oluvchi yurtdoshlarimiz orasida o‘qituvchilar soni ortib boryapti. Demak, harakat qilgan o‘qituvchi uchun buning iloji bor. Biz yosh pedagoglar bilan suhbatlashib, ular faoliyatining o‘ziga xos tomonlari, jumladan, bugungi imkoniyatlardan qay darajada foydalanayotgani bilan qiziqdik.

Nafisa SALIMOVA,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot texnologiyalariga ixtisoslashtirilgan maktab o‘qituvchisi:

— Bolaligimdan zamonaviy texnologiyalarga qiziqardim, lekin bir kun kelib, shu soha bo‘yicha o‘qituvchi bo‘lib ishlashimni hech tasavvur qilmaganman. Tan olishim kerak, avvaliga bu kasbni egallashim unchalik ham o‘zimga manzur bo‘lmagan. Sababi, o‘qituvchilikka asabiylik, butun kuningiz shovqinda o‘tadigan ish sifatida qarardim. Biroq ish boshlaganimdan keyin bu kasbning zavqi butunlay boshqacha ekanini bildim.

Universitetni bitirgach, Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanidagi o‘zim o‘qigan 17-maktabda ish boshladim. Ikki yil ishlagach, davlatimiz tomonidan xotin-qizlar ta’limiga berilayotgan e’tibor, xususan, magistraturaga shartnoma asosida o‘qishga kirgan xotin-qizlarning shartnoma puli to‘liq qoplab berilishidan ruhlanib, o‘qishni davom ettirishga qaror qildim. Ingliz tilini puxta o‘rganib, C1 daraja oldim. Quvonarlisi, shartnoma emas, davlat granti asosida o‘qishga qabul qilindim. Ayni paytda O‘zbekiston Milliy universiteti matematika fakulteti 2-kurs magistrantiman.

Nega bular haqida gapiryapman? Chunki meni davlatimiz ruhlantirgani bois, bugun mana shunday nufuzli maktabda ishlayapman, ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanyapman. Dastlab ish boshlagan kezlarim ustozlarimning “Qo‘rqma, butun kuch-quvvatni o‘quvchilardan olasan” degan gapi menga havoyi tuyulgan, axir qanday qilib odam o‘quvchilardan quvvat olishi mumkin?! Biroq ustozlar haq ekan. Hozir o‘quvchilarim bilan bir kun muloqot qilmasam, o‘zimni rag‘batim so‘nib borayotgandek his qilaman.

Har kimning rizqi har yerga sochilgan, deyishadi. Bunga qo‘shimcha sifatida ko‘p mehnat qilish ham rizq ko‘payishiga hissa qo‘shadi deb o‘ylayman. Bugungi o‘qituvchi qancha ko‘p mehnat qilsa, rizqi shuncha ortadi. Muhimi faqat dars o‘tib, uyga qaytish bilan cheklanib qolmay, darsdan bo‘sh paytlarda odam o‘z ustida ko‘proq ishlashi kerak. Ana shundagina natija yaxshiroq, faoliyatingizdan o‘zingizning ham ko‘nglingiz to‘q bo‘ladi, maoshim kam, deya nolishgayam vaqtingiz qolmaydi.

Sinfxonada agar 4 yoki 5 intiluvchan o‘quvchingiz bo‘lsa, yondashuvni to‘g‘ri qo‘ya olsangiz, ular bilan butun sinfni oldinga tortib ketishingiz mumkin. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot texnologiyalariga ixtisoslashtirilgan maktabda esa iqtidorli o‘quvchilar saralangan. Ularning barchasi faqat o‘qiydi, kurashadi, intiladi. Bunday o‘g‘il-qizlar bilan ishlash esa, tabiiyki, bizni ham tinimsiz ishlashga, harakatga undaydi.

Mirsodiq TUROBOV,
Surxondaryo viloyati Muzrabot tumanidagi 7-maktab o‘qituvchisi:

— Davlatimiz rahbarining o‘qituvchilar maoshini 1000 dollarga yetkazish haqidagi so‘zini eshitib, rosa hayajonlanganman. O‘sha kun hamon yodimda. Biroq bunday maoshni qo‘limga ushlab ko‘rmaganim bois, baribir ishona olmaganman. Bugun esa oddiy maktab o‘qituvchisi sifatida 1000 dollar emas, 1800 dollardan ziyod maosh olyapman. Bu Prezidentimizning maqsadi ortig‘i bilan amalga oshayotganidan dalolat.

“Xo‘sh, nimalarning hisobiga buncha maosh olyapsiz?” deb so‘rashingiz mumkin. Bunga javob berishdan oldin OTMni tamomlayotgan paytimdagi bir voqeani aytib bersam. A’lo baholarga o‘qiganim sababli ustozlarim universitetda qol, magistraturada o‘qib, faoliyatingni ham shu yerda davom ettir, degan. Men esa a’lo baholarga o‘qigan hamma shaharda qolsa, qishloq bolalarini kim o‘qitadi, deganman va tumanimizga qaytib, maktabda ish boshlaganman. Sababi, bir kun kelib, maktab o‘qituvchilarining ham yelkasiga oftob tegishiga ishonardim. Yaratganga shukr, o‘sha kunlar keldi.

Faoliyatimni boshlagan paytimdanoq butun diqqatimni tajribamni oshirishga qaratdim. Ertangi mahoratim bugungidan yaxshiroq, kelgusidagi yutuqlarim hozirgilaridan ko‘proq bo‘lishiga intildim. Masalan, o‘tgan yili o‘quv yili boshlanishi oldidan oldimga uchta maqsad qo‘ygandim: vazir jamg‘armasi ustamasi uchun saralashda g‘olib bo‘lish, oliy toifani yana bir bor muddatidan oldin olish hamda Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti tomonidan beriladigan xalqaro sertifikatni qo‘lga kiritish. Ularning barchasi amalga oshdi.

Bularni maqtanish uchun emas, balki bugun o‘qituvchi ham boshqa soha vakillari kabi qattiq harakat qilsa, astoydil intilsa, eng muhimi, kasbini sevsa, bolalarni yaxshi ko‘rsa, e’zoz topadi, yaxshi maosh olib, o‘zi istagandek yashaydi, degan mazmunda gapiryapman. Chunki bugun imkoniyat katta.

Mana bir misol. Faoliyatimni boshlagan dastlabki yillarda oliy toifani qo‘lga kiritish uchun o‘qituvchiga o‘n yillab vaqt kerak edi, ya’ni har bir toifada kamida uch yildan ishlash talab etilardi. Bugun esa buning uchun bir yarim yil kifoya. Agar bunday imkoniyatlarni sanayversak, ularning soni ko‘p. Aytmoqchi bo‘lganim, harakat qilsak, kam bo‘lmaymiz.

Bahodir SOLIBOYEV,
Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumanidagi 52-maktab o‘qituvchisi:

— Ingliz tiliga qiziqqanim tufayli tayyorlanib, O‘zbekiston Milliy universitetining xorijiy filologiya fakultetiga hujjat topshirdim va talaba bo‘ldim. Talabaligimda o‘qishdan keyin o‘quv markazlarida dars o‘tardim. Ingliz tili grammatikasi bo‘yicha bilimim yaxshi bo‘lgani bois, o‘qishni bitirganimdan keyin ham shu yerda ishimni davom ettirishim mumkinligini aytishdi. Biroq abituriyentlik paytimda magistraturada o‘qish uchun xorijga ketaman yoki qishlog‘imga qaytib kelib, o‘zim o‘qigan maktabda yuzlab shogirdlar yetishtiraman deb maqsad qilgandim. Talabalik davrim nihoyasiga yetgani sari ikki yo‘lning qaysi birini tanlash qiyinlashib boraverdi.

Erkak kishi uchun tanlagan kasbining moliyaviy tomonlari juda muhim. Shu sababli bu haqda tanigan-bilgan ustozlarimdan surishtira boshladim. Ular o‘z ustimda ishlamay, oddiy o‘qituvchi bo‘lib yursam o‘ziga yarasha kun ko‘rishim, biroq barcha imkoniyatlardan foydalansam, 1000 dollardan ziyod maosh olishim mumkinligini aytdi. Xullas, diplomni qo‘lga oldim-u, qishlog‘imizdagi maktabga ishga keldim.

Faoliyatim boshlanganiga hali ko‘p bo‘lmadi, biroq allaqachon o‘z oldimga katta-katta maqsadlar qo‘yib, ularni ro‘yobga chiqarish uchun harakatni boshlab yubordim. Xudo xohlasa, kelgusi yili toifamni oshirib, vazir jamg‘armasi ustamasini olishga erishish niyatim bor. Shu bilan birga, ingliz tilidan xalqaro sertifikatimni ham yangilash harakatidaman. Rosti, hisoblab ko‘rsam, oldimga qo‘ygan maqsadlarimning barchasiga erishsam, qishloq maktabida ishlab, manaman degan oliygohlarning o‘qituvchilari kabi maosh olishim mumkin ekan.

Mehriniso NOROVA,
Samarqand viloyati Narpay tumanidagi 47-maktab o‘qituvchisi:

— Navoiy davlat pedagogika institutini tamomlagach, Narpay tumanidagi 47-maktabda ish boshladim. Suhbat bahona tasavvurimda o‘sha yillar bilan bugungi kunni taqqoslar ekanman, oradagi katta farq darhol ko‘zga tashlanadi.

Toifalar uchun uzoq yillik kutish muddati qisqartirildi, milliy va xalqaro sertifikatlarga ustama joriy etildi. O‘qituvchilar uchun kasbiy rivojlantirish loyihalari tashkil etildi, malaka oshirish faqat bir yilda bir marta emas, uzluksiz davom etadigan jarayonga aylandi. Shuningdek, o‘qituvchilar o‘rtasida o‘tkaziladigan tanlovlar faqat faxriy yorliq berish bilan chegaralanmay, pulli mukofot jamg‘armalari belgilanadigan bo‘ldi. O‘quvchilari xalqaro fan olimpiadalarida yuksak natijalarni qo‘lga kiritgan o‘qituvchilar yanada ruhlanadi. Imkoniyatlarni sanayversak, hali ancha ko‘p. Biroq ulardan foydalanmoqchi bo‘lganlar kamayayotgandek, nazarimda. Aslida, bor imkoniyatdan foydalanmay, pillapoyaning boshida depsinib turish hammamizning qo‘limizdan keladi, ammo baraka harakatda. Tanlov barchaning ixtiyorida.

Shaxsan men avvaldanoq imkoniyatlardan foydalanishni afzal bildim. To‘g‘ri, hammasi bir zumda amalga oshib qolmaydi, lekin to‘xtamasangiz, natijaga erishasiz. Ilgari o‘qituvchilik kasbi ortidan xorijiy safarlarga chiqish nasib etarmikan deya o‘ylardim. Yaratganga shukr, joriy yilda kasbim tufayli Turkiyada bo‘lib o‘tgan konferensiyada ishtirok etdim. Bundan ilgari — 2018-yilda Angliyada malaka oshirib qaytgan edim. Nasib etsa, keyingi yil o‘zim sevgan bir nechta mamlakatga sayyoh sifatida bormoqchiman. Sababi, bugun imkoniyatlardan to‘liq foydalanayotgan o‘qituvchining sayohat qilishga ham moliyaviy imkoniyati yetadi.

Darvoqe, biz yangi o‘quv yilini ilgarigidek paxta dalalarida emas, zamonaviy sinfxonalarda kutib olyapmiz. Turli hasharlarga jalb etishga chek qo‘yilgani bois, o‘sha vaqtni o‘z ustimizda ishlashga sarflayapmiz. Demak, ishtiyoq bilan ishlash fursati keldi.

Eng ulug‘vor orzularimdan biri kelgusida shogirdlarim orasidan vatanimizni dunyoga tanitadigan kadrlar tayyorlash hamda ularning o‘qituvchisi bo‘lganman, deya faxrlanib yurish.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Jonibek ALIJONOV yozib oldi.

Davlat dasturi — amalda

QASHQADARYODA O‘QUVCHILAR MAKTABGA AVTOBUSDA QATNAY BOSHLADI

Boshlanishi 1-betda

Bu yil bir oz ulg‘aygan bo‘lsa-da, maktabga borish Faridaga ancha malol kelib qolgandi. Odatdagidek 3-sinfni bir amallab boshlab oldi. Lekin har safar darsga bormaslikka biror bahona topishga intilar, ota-onasining yaxshi gapi, shirin aldovi bilan yana yo‘lga chiqardi.

Bugun ham bormaslik payida erta tongdanoq o‘zicha rejalar tuzib turgan edi. Darvoza tomondan dugonasi chaqirayotganini eshitdi. Yana maktabga borish uchun chaqiryapti, deya chiqmaslikka qaror qildi. Lekin onasi shoshgancha kirib, unga aytgan yangilikni eshitib, harakatga tushib qoldi. Tez maktab kiyimini kiygancha ko‘chaga yugurarkan, sal narida avtobusga dugonalari chiqayotganini ko‘rdi. Uni imlab chaqirishdi.

— Endi har kuni avtobusda maktabga borarkanmiz, — dedi dugonalaridan biri suyunchilab.

— Har kunimi? — dedi ishonqiramay Farida. Tengdoshining so‘zlaridan shubhalanib, sekin haydovchiga yaqinlashdi.

— Amaki, endi bizni har kuni avtobusda maktabimizga olib borasizmi?

— Albatta, sizlar faqat yaxshi o‘qisangiz bo‘ldi, — deya kulib qo‘ydi haydovchi.

Shu kundan Mirishkor tumanidagi 22- hamda 23-maktabning olis masofadan qatnovchi o‘quvchilari uchun quvonchli o‘quv yili boshlandi. Mana, bir haftadirki, olisdan ikki maktabga qatnovchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari avtobusda maktabga kelib-ketmoqda.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturiga ko‘ra, 2024-yilning 1-sentabridan boshlab olis va chekka hududlarda joylashgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun tajriba tariqasida bepul avtobuslar qatnovini yo‘lga qo‘yish belgilangandi. Bunda asosan, tajribasinov tariqasida Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridagi 100 ta umumiy o‘rta ta’lim maktabiga olis hududdan qatnaydigan o‘quvchilarning avtobusda qatnovini autsorsing asosida tashkil etish vazifasi yuklangandi.

Yaqinda ushbu farmon ijrosini ta’minlash maqsadida birinchilardan bo‘lib Mirishkor tumanida amaliy ish boshlandi. Xususan, tumandagi Pomuq mahallasi hududidagi ikki maktabga ham o‘quvchilarning ko‘p qismi olis hududlardan qatnab o‘qiydi.

— O‘quv xonalari yetishmasligi bois, darslarimiz ikki navbatda tashkil etiladi, — deydi Mirishkor tumanidagi 22-maktab direktori Abdunabi Abdiyev. — Uzoqdan qatnovchi o‘quvchilar uchun avtobus qatnovi qo‘yilgani ancha qulaylik tug‘dirdi. Qolaversa, boshlang‘ich sinflardagi farzandlarimizga katta imkoniyat bo‘ldi. Ayniqsa, ikkinchi smenada o‘qiydigan bolalarimiz qish kunlari uyiga borguncha qorong‘i tushib qolardi. Ular uyiga yetib olguniga qadar doim xavotirda o‘tirardik. Gohida qorli va yomg‘irli kunlarda o‘qituvchilar hamrohlik qilishga majbur edi. Mana, bir haftadirki, bolalarimiz o‘z vaqtida, hech bir muammosiz o‘qishga yetib kelmoqda. Bu barchamiz uchun katta imkoniyat.

Ayni paytda 22-maktabda 5-6 kilometr oraliqda joylashgan Barhayot mahallasidan 200 ga yaqin o‘quvchi o‘qiydi. Avtobus qatnovi qo‘yilgani hududdagi ota-onalar va maktab yoshidagilarga quvonch olib keldi. Bundan tashqari, yoshlarning ta’lim olishga qiziqishi yanada oshishiga turtki bo‘ldi.

— Har kuni maza qilib avtobusda maktabga borib kelyapmiz, — deydi 22-maktabning 3-sinf o‘quvchisi Farida Xushkeldiyeva. — Endi dars qilishga bemalol vaqtim bo‘ladi. Avval erta tongdan yo‘lga chiqib, bir amallab kechikib bo‘lsa-da, sinfxonaga kirib borardik. Qaytishda esa uyga kechga yaqin yetib kelardik. Shundan so‘ng ovqatlanib, charchab uxlab qolardik. Endi o‘qishimni yaxshilayman. Ustozlarimizning topshiriqlarini o‘z vaqtida bajarib, a’lo bahoga o‘qishga harakat qilaman.

Reja asosida qo‘yilgan avtobuslar ertalabki paytda eng uzoq hududdan o‘quvchilarni maktabga olib kelgach, soat 12:00 lar atrofida ikkinchi smenada darsga keluvchilarni olib kelib, ertalab kelganlarni olib qaytadi. Kechki payt esa ikkinchi navbatda bilim olgan yoshlar manziliga yetkazib qo‘yilmoqda. Tumandagi 23-maktabda ham xuddi shunday tartib yo‘lga qo‘yilgan, avtobus asosan, eng olis Yangiqishloq mahallasidagi bolalar uchun xizmat qilmoqda.

Qashqadaryo viloyati maktab va maktabgacha ta’lim boshqarmasi mas’ullari ma’lumotiga ko‘ra, vohada jami 50 ta maktabga avtobus qatnovi yo‘lga qo‘yilishi rejalashtirilgan. Mirishkor tumanida birinchilardan bo‘lib ish boshlanibdi. Ayni paytda qolgan tumanlarda zarur sa’y-harakat ko‘rilmoqda. Demak, qisqa muddatda viloyatning qolgan tumanlaridagi kamida uch-to‘rtta maktabga avtobus qatnay boshlaydi. Shu kunlarda Qarshi tumanidagi ikkita maktab bolalariga bu imkoniyat berilgan. Tez kunlarda G‘uzor hamda Koson tumanlarida ham bu borada xushxabar tarqalishi aniq.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 3431.
41218 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Dilshod Ulug‘murodov
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘zA yakuni — 21:00 Topshirildi — 23:00

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05